



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

# VATANPARVAR



## MUDOM YUKSAK TUTGUM TINCHLIK TUG‘INI!



Kichik serjant Sherzod SAMANDAROV



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA‘NAVIY-MA‘RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 26-MAY  
№22 (3188)



## Vatan tuyg'usi



Salim ASHUR,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi maslahatchisi,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

**Bobo doim yerga qarab yurardi. Undan so'rashdi: "Bobo, hech boshingizni ko'tarmaysiz, nima izlaysiz?" Bobo javob berdi: "Yoshligimni, bolam".**

**Koshki, yoshlikni topib, yana qo'lga kiritib bo'lsa. U bir qush misoli, hayotingiz shajarasiga bir qo'nadi-yu, uchadi-ketadi. Ust-boshingizda par-patlari qoladi, xolos. Buni anglaganda esa dil "Eh, sening yoshliging menda bo'lsaydi", deb o'rtanadi.**

## HAYOT KITOBIGA MA'NOLAR BITIB...

**Yoshlikning eng kuchga to'lgan damlarini Vatan himoyasiga bag'ishlagan yigit-qizlar – askarlar, ofitserlar chindan ham baxtlilar.** Iste'dodli, bilimli va matonatli yoshlar – "Yangi O'zbekiston yoshlari" degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo'lgan yigit-qizlar millatning javhari, ko'rki. Chunki Vatan himoyasi – sharafli burch. Dunyoda Vatandan, uning ozodligi, mustaqilligidan muqaddasroq, sharafliroq vazifa yo'q.

Dunyoda eng katta sharmandalik, nomussizlik el-yurtga xiyonatdir. Buni hech kim kechirmaydi. Napoleon askarlari Avstriya tuprog'iga bostirib kirganida yuqori martabali mahalliy ofitser o'z mamlakati qo'shini haqida muhim ma'lumotlarni Napoleonga beradi. Bu xoinlik tufayli fransuz qo'shini avstriyaliklar ustidan g'alaba qozonadi. Jang tugagach, o'sha avstriyalik ofitser Napoleon bilan ko'rishish uchun uning yoniga keladi. Napoleon unga oltin, pul beradi, lekin: **"Vatanini sotgan odam bilan qo'l berib ko'rishmayman", deydi va undan yuz o'giradi.**

Ha, Vatanga sadoqat inson tiyatidagi eng noyob fazilatdir. Hazrat Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida vatanparvarlik tuyg'usini yosh avlodning eng oliy fazilati, deb ta'riflab, **"Vatan tuyg'usi – bu qalbdagi abadiy yonib turuvchi muqaddas his"**, deb yozadi.

Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doim oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi. Yoshlikning har bir daqiqasini g'animat bilib, doim bunyodkorlik va ijodkorlik hissi bilan, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashagan yoshlar hayotda katta marralarni zabt etadi. Zero yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh, deydlar. Ya'ni u hech qachon xotiradan o'chmaydi.

Yurtimizda yoshlar masalasi hamisha eng muhim masalalardan biri sanalgan. Ayniqsa, keyingi yillarda yosh avlodning orzu-intilishlarini, iqtidor va layoqatini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish borasida keng ko'lamli amaliy ishlar o'z samarasini bermozda. O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e'tirof etilgani ham shundan dalolat beradi. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Yoshlar strategiyasi – 2030" dasturini namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha tanlab olingan o'nta mamlakatdan biri aynan O'zbekiston bo'lgani bejiz emas. Bu boradagi amaliy ishlar natijasi sifatida o'tgan yillarda Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilinganini eslab o'tish kifoya.**

Yangi O'zbekiston kelajagi bugungi yosh avlodning azm-u shijoati, bilimi, orzu-intilishlariga bog'liq, albatta. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilgan. **Yurtimizdagi barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tanlab olingan.** Mahallada bu tizim orqali yoshlarga zarur imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu esa mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyi bo'g'inning o'zida hal etish imkonini bermozda.

Albatta, yoshlarning mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarida muhim yutuqlarga erishayotgani quvonarli. Mamlakatimizda navqiron avlod uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlar tufayli yoshlar eng murakkab bo'lgan matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda oltin, kumush, bronza medallarni, madaniyat va san'at, sport sohalaridagi nufuzli xalqaro tanlovlarda gran-pri hamda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, yuqori natijalarga erishmoqda.

**Bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari saflarida yigitlik burchini sharaf bilan ado etayotgan, maktab, kollej, texnikum va oliygo'hlarda bilim olayotgan, o'z shaxsiy ishini ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalariga, zamonaviy IT-texnologiyalari yo'nalishlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan yosh avlod Vatanimizning porloq kelajagi bunyodkorlari bo'lib maydonga chiqmoqda. "Yangi O'zbekiston bunyodkori bo'laman!", "Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo'shaman!", degan yuksak maqsadlar yoshlarimizning qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylangan. Navqiron avlodning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.**

Afsuski, ayrim yigit-qizlar yoshlik – zangor faslning qadriga yetmaydi. Yoshlikning oltin daqiqalari –


g'animat onlarini yelga sovradi. Ular yoshlikning qaytarilmas, oltindan-da qimmat damlarini yengil-yelpi hoy-u havaslarga sarflaydi. Hind xalqining milliy qahramoni Mahatma Gandiga "Globallashuv jarayoniga munosabatingiz qanday?" deb savol bilan murojaat qilinganda, u shunday javob qaytargan ekan: **"Men tashqaridagi bo'rondan qo'rqib, derazamni yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo kerak ekan, deb derazamni katta ochib ham qo'ya olmayman, chunki uyimni chang-to'zon bosib ketishini xohlamayman".**

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlilik, xulq-atvorning o'zgarishi, hayotiy qadriyatlar transformatsiyasi, avlodlarni noto'g'ri tushunish, tengdoshlar o'rtasidagi sog'lom muloqot kamyoblashuvi, turli illatlarga ruju qo'yish, jinoyat yo'lga kirish kabi illatlar mavjudligidan ko'z yumolmaymiz.

Mamlakatimizda bunday noxush illatlarga qarshi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, bu borada kuni kecha davlatimiz rahbari tomonidan Milliy kitobxonlik harakatiga start berilganini aytib o'tish lozim. Ushbu tashabbus maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhitini kuchaytirib, yoshlar qalbida yangi bunyodkorlik ruhini uyg'otishga xizmat qiladi. Mazkur umummilliy harakatda o'quvchi-yoshlar, ustozlar, ota-onalar va keng jamoatchilik faol ishtirok etadi. Sir emas, bugun dunyo shiddat bilan o'zgarimoqda, raqamli texnologiyalar, zamonaviy gadgetlar va sun'iy intellekt hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda. Bunday murakkab sharoitda insonning mustaqil fikrlay olishining o'zi eng katta ustunlikdir. Zero ulug' adib Chingiz Aytmatov ta'kidlaganidek: **"Insonning eng katta boyligi – bu uning fikri va so'zi"**. Kitob o'qiydigan odam teran va sog'lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega inson esa jamiyatni o'zgartira oladi.

Yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyati va kitobga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ayni haqiqat. Kitobxonlik faqat ta'lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma'naviy qudrati va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muhim omilga aylandi. Millat xalqaro maydonda qudratli va yuksak salohiyatli xalq sifatida o'zini namoyon etishi uchun ikki mustahkam asosga tayanadi. Bular – bebaho ilmiy va ma'naviy merosimiz hamda zamonaviy ilm-fan va ilg'or texnologiyalar.

**Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi**



**mutafakkir bobolarimiz insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan.** Ularning yuksak marralarga erishishida ilmga intilish va kitob mutolaasi asosiy manba bo'lgan. Yangi O'zbekiston yoshlari buyuk ajdodlarimizning haqli va munosib davomchilari.

Kitob o'qiydigan, bilimga intilgan va ezgu ma'nolarni anglab borayotgan yoshlar, hayotga dadil kirib kelayotgan millat hech qachon yengilmaydi. Zero ilm yengilmasdir. Ma'rifatparvar ajdodlarimiz aytganidek: **"Ilmdan boshqa najot yo'q"**.

Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doim oldinga intilib yashaydigan xalqimizning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi. Jonajon Vatanimizga mehr va sadoqat bilan yashayotgan, ilm-fan va zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo'lib voyaga yetayotgan, bunyodkorlik va ijodkorlik, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashagan yigit-qizlar, albatta, hayotda o'z o'rnini topadi, har qanday yuksak marralarni zabt etadi.

### MUNOSIB AVLOD

Hayot kitobiga bitib ma'nolar, Ilm-fan mash'alini yoqqan siymolar, Beruniy, Ulug'bek, Ibn Sinolar, Buyuk bobolarning izlarini bosib, Sharafdir ularga bo'lmoq munosib.

Yaratganning azal qonunlari bor, Imon-e'tiqodning mazmunlari bor, Din-u diyonatning ustunlari bor, Buxoriy, Termiziy, Moturidiylar, Bizni yuksaklarga chorlaydi ular.

Cheksiz hayratlarga chulg'angan ma'vo, Qalblarda to'lg'ongan so'z ila navo, Yaqqalam ayladi, Navoiy bobo Zaminning egasi – banibasharni, Yetti yoshdan toki yetmish yasharni.

Ko'klardan yog'ilib ilohiy ilhom, Kuy, ohang zarbida titrar tim-u tom, Humo qanotida keldi "Shashmaqom", Tirildi qoq cho'pdek qurigan ul soz, Sahrodan karvondek keladi ovoz.

Ajdodlardan qolgan adolat – meros, Yangi nasllarga muddao, ixlos, Buyuk bobolarga ko'rsatib e'zoz, Aziz nomlarini doim etib yod, Bo'laylik ularga munosib avlod.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



# YUTUQLARGA YARASHA E'TIROF

**Tizimli islohotlar, zamonaviy ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik natijasida mamlakatimiz harbiy tibbiyoti qator yutuqlarga erishdi. Ilgari faqat umumiy davolash bilan shug'ullangan soha qisqa yillar davomida yuqori texnologiyali jarrohlik, innovatsion harbiy dala tibbiyoti va mustaqil ilmiy maktabga ega tizimga aylanib ulgurdi.**

Harbiy shifokorlikka o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, innovatsion tadqiqotlar olib borish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, harbiy dala sharoitida mobil gospitallar, zamonaviy reanimatsiya mashinalari faoliyatini uzluksiz yo'lga qo'yish, yetakchi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning ta'minlanishi kabi omillar ana shu yutuqlarning poydevoridir. Eng muhimi, O'zbekiston tibbiyotidagi islohotlar nafaqat mintaqamizda, balki butun jahonda e'tirof etila boshlangani quvonarli. Poytaxtimiz "Harbiy va amaliy tibbiyotning dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga ilk bor mezbonlik qilishi ham bejiz emas.

Nufuzli anjumanda Qozog'iston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkmaniston kabi qo'shni va qardosh respublikalar, shuningdek Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya singari Yevropa Ittifoqi davlatlari vakillari qatnashgani e'tiborga molik.



Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti tomonidan tashkillashtirilgan mazkur tadbirda zamonaviy harbiy tibbiyotning yangi texnologiyalari, ilmiy ishlar taqdimotlari, ilmiy izlanishlarning natijalari borasida o'zaro tajriba almashish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, qurolli mojarolar va ekstremal sharoitlarda yuzaga keladigan tibbiy muammolarga ilmiy yechim topish, teletibbiyot va sun'iy intellektni sohaga faol joriy etish, harbiy hamda fuqarolik yo'nalishi tibbiyot xodimlari o'rtasidagi xalqaro aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

Anjuman dasturi nazariy ma'ruzalar hamda Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalda mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Amaliyotlar torakal (ko'krak qafasi jarrohligi), qorin bo'shlig'i, yurak-qantomir, travmatologik, ginekologik, urologik

va neyro jarrohlik sohalari bo'yicha olib boriladi.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning dastlabki kunida xorijiy mehmonlar Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi. Shuningdek, chet ellik mutaxassislar ko'krak qafasi, urologik, qantomir, harakat tayanch tizimi, qorin bo'shlig'i bo'yicha o'tkazilgan jarrohlik amaliyotini to'g'ridan to'g'ri kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Konferensiya dasturiga muvofiq, ikkinchi kuni qatnashchilar o'z ma'ruzalari va ilmiy izlanishlarini yig'ilganlar e'tiboriga havola etdi. Xalqaro harbiy tibbiyot qo'mitasi raisi general-leytenant Pyer Neyrinks (Belgiya) onlayn chiqishi orqali O'zbekiston kelgusida bu kabi xalqaro konferensiyalarga ko'plab marotaba mezbon bo'lishiga ishonch bildirdi. Aytish joizki, anjumandagi belgilangan tanaffuslar

jarayonida zamonaviy harbiy tibbiyot texnologiyalari hamda dori-darmonlar namoyishi tashkil etilib, bu borada dastlabki hamkorlik rejalari belgilab olindi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya yurtimiz mehmonlari uchun poytaxtimiz va Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga uyushtirilgan ekskursiya bilan o'z ishini yakunladi. O'zbekistonga tashrif buyurgan harbiy tibbiyot mutaxassislari mamlakatimizda birinchi marta tashkillashtirilgan bu nufuzli anjumanning yutuqlarini e'tirof etishdi.

**Tibbiy xizmat polkovnigi Maharat RZAYEV (Ozarbayjon):**

O'zbekistonda harbiy tibbiyot sohasining bu qadar tez rivojlanib ketganining sababi nimada ekanini Toshkentga tashrifimizning birinchi kunidayoq anglab yetdim. Buning zamirida ta'lim tizimi, qayta tayyorlash va malaka oshirish, innovatsion tadqiqotlar olib borish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar ekaniga guvoh bo'ldim. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatingizda har qanday davlat uchun o'rnak bo'ladigan maktab yaratilibdi...

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi Pyotr DORSVEYLLER (Germaniya):**

To'g'risini aytsam, men, birinchi navbatda, ko'rganlarimni Germaniyadagi sharoitlar bilan taqqosladim. Deyarli farqini topmadim. Bu yerda erishilgan yutuqlarni zamonaviy texnologiyalar va amaliyotning uyg'unligi, desam, adashmayman. Harbiy tibbiyot instituti kursantlarining malakali ta'lim olishi uchun sharoitlar o'ta yuqori darajada. Simulyatsiya markazidagi har bir xona, xuddi real hayotdagidek jihozlangan...

**Asror RO'ZIBOYEV, "Vatanparvar"**



Esse



# YASHIRIN

Poligon hamisha shovqin ichida bo'ladi. O'sha kuni ham keng dala porox hidi bilan qoplandi. Qurollardan chiqqan "qasir-qusur" ovozlar atrofni tutib ketdi. O'qlarning chuvullashi qulog'im ostida fitroqni paydo qildi. Chetda turib, nishonlarning qulashini kuzatib o'tirdim.

# QO'SHIQ

Aka, shu kuni keng dala ko'zga ko'rinmas, ammo qalb bilan eshitiladigan mayin ovozlarga to'la tirik olam edi. Shabada maysalar uchidan barmoqlardek sirg'alib o'tar, ular yerning yuragi urayotgandek bir maromda tebranardi. Olashaqshaqning beqaror parvozi, qaldirg'ochlarning osmon bag'rida chizgan egri yo'llari, tog' chumchuqlarining yengil sayrashi – barchasi osmon bilan yer o'rtasida yangrayotgan sirli bir qo'shiqqa o'xshardi.

**Bu qo'shiqni faqat ko'ngli shovqindan charchagan, ha, o'zidan qochgan odamgina anglaydi.**

Kenglik kaminaning xayollarini uzoqqa olib qochdi. Go'yo vaqtning o'zi ham sekinlashib borardi. Ko'ngildagi og'ir o'ylar shabadaga qo'shilib, dala ortidagi adirlar sari uchib ketaverdi.

Qarsillagan ovoz butun xayollarni chilparchin qildi. O'zimga keldim. Osmon titrab ketgandek edi. Qushlar hurkib, har tomonga sochildi. Quloqlarim shang'illab, boshimga og'riq yopirildi. Bir lahzada dala temir va olovning dahshatli sahnasiga aylandi.

- Tegdimi?
- Tegdi...
- Yana o'qlansin!
- Xo'p bo'ladi!

Komandir va kursantlar o'rtasidagi qisqa, ammo keskin suhbat shu bilan tugadi. Tag'in og'ir "dodlab" tank oldinga tirmashdi. Uning temir zanjirlari yer bag'rini tirmab borar, ortidan to'kilayotgan tuproq yashil maysalarning ochilib qolgan tomirlari ustiga sochilardi.

**Chumoli ko'tarib ketayotgan don tank izlari orasiga tushib ketdi.**

Men negadir o'sha chumoliga uzoq tikilib qoldim. U bir dona donni o'zidan necha barobar og'ir bo'lsa-da, ortmoqlab ko'tarib ketardi. Hayot ham shunday emasmi? Inson ba'zan ko'rinmas yuklarini ko'tarib

yashaydi. Faqat farqi – chumoli yo'lini yo'qotmaydi.

Birzum oldin osmon bilan yer orasida yangragan yashirin qo'shiq endi, temirning shafqatsiz shovqiniga qorishib ketdi. Qaldirg'ochlar uzoqlashdi. Kalta qanotli chumchuqlar allaqachon qochib ketgan, faqat shamolgina hanuz maysalar boshini silab o'tardi – xuddi hech narsa bo'lmagandek.

**Ha, hech narsa bo'lgani yo'q.**

Faqat kursantlar sinov mashg'ulotlarida ishtirok etyapti. Ular bu kunga to'rt yil tayyorgarlik ko'rdi. Shu vaqt ichida qancha kitob sahifalarida yigitlar "yashadi". Qancha taktik harakatlarni xayolida qayta-qayta jonlantirdi. Qancha tunlar xaritalar ustiga egilib, ertangi harakatlarning ehtimoliy yo'llarini chizdi.

- Nega uxlamadi?
- Uxlash kerakmi?
- Uxlasin edi!
- Unda ishonch nima bo'ladi?

Ishonch o'ladi. Vaqt ketadi. Keyin yuz bardosh berarmidi? Bermaydi. Hammasi tamom bo'ladi. Yetakchi yetaklamaydi, komandir bo'lmaydi. Qog'oz sahifalarida nomi qoladi.

- Qoladimi?
- Qoladi.

Shunchaki, qog'ozda qoladi. Ko'ngilga kirmaydi. Kirolmaydi. Yaxshi komandir tilga tushadi. Ko'zga tushadi. So'zida turadi. Jangdan chiqadi. So'ng Vatanga aylanadi.

**Tank yana tutun ichida qoldi.** Ekipaj nishonga otildi. Stvol to'g'riga qaradi. Keyin "qars" degan ovoz xas-xashaklarni yerdan uzib, yana joyiga qaytardi. Ha, otilgan snaryad – metall parchasi emasdi. Unda yillar davomida yig'ilgan mehnat, intizom va mas'uliyat mujassam edi.

- O'zi har otilgan o'q nishonga tegishi kerakmi?
- Kerak.
- Xato bo'lsa-chi?
- Bu insonga xos, axir.

**Ha, xato insonga xos.** Ammo jang maydonida, ba'zan



Muallif suratga olgan



birgina xato butun qismatni o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun bu yerda har bir qarorning vazni bor. Har bir buyruqning ortida taqdir turadi.

Qachondir ustozim aytgan edi:  
– Bilmaslik uyat emas. Ammo bilmasligini yashirish – insonning o'ziga qilgan xiyonati.

O'sha gapning ma'nosini "Chirchiq" poligonida yana bir bor angladim.

Uch tomondan harakatlangan tanklarni boshqarayotgan ekipajlarning mahoratini tajribali komissiya a'zolari diqqat bilan kuzatardi. Bu yerda faqat nishonni urish emas, vaqtni his qilish, vaziyatni anglash, bosim ostida o'zini yo'qotmaslik ham baholanardi.

– Shoshmadimi?  
– Shoshmadi.  
– O'ziga ishonchi bormi?  
– Yetarli.

Yo'q, yetmaydi. Yetdi, deganda cho'kadi. To'xtaydi va kuzatuvchiga aylanadi.

– Aylanmasinmi?  
– Aylansin!

Faqat doiraning markazda muhim mutaxassis bo'lib aylansin. O'rgatsin. Boshqarsin. Taraqqiyot uchun hissa qo'shsin. Bilsin-da, kimlarning izdoshi ekanini.

– Bilmaydimi?  
– Bildirildi.

Shunday kursantlar hamisha o'qitiladi. Ularga bilim chuqur o'rgatiladi. Haqiqiy mardlarcha qarashga ega bo'lmaguncha tayyorgarlik o'quvlarida ishtirok etadi.

– **Mard kim o'zi?**  
– **Vatanini sevganlar.**

Sevamizmi? Sevamiz! Sevganimiz uchun ham doim bedormiz. Tunni tongga ulaymiz. Ajdodlar va avlodlar oldidagi mas'uliyatni his etganimizni anglaganimiz – Vatanning bo'lagi ekanimizdan darak beradi.

Ruh shunday keladi. Yetakchi avval boshdan tortishni, ha, ishontirishni o'rganadi. So'ng tepaga chiqadi. Chunki jangda quroldan avval insonning ruhi sinaladi.

– Nega bu qadar muhim?  
– O'zini boshqara olgan odamgina boshqalarni ham boshqara oladi.

**To'g'ri. Tartibni yo'qotgan qo'shin avval o'zini, keyin jangni yo'qotadi.**

Hayot ham xuddi shunday. Insonning ichidagi tartib buzilsa, uning qalbida shovqin boshlanadi. O'sha shovqin esa ba'zan tank ovozidan ham xavfliroq bo'ladi.

### Yetti daqiqa...

Kursantlarga atigi yetti daqiqa berildi.

Ammo shu qisqa vaqt ichida bo'lajak ofitserlarning to'rt yillik mehnati, sabri, bilim va irodasi sinaldi. Bir nishondan ikkinchisiga burilgan tanklar go'yo faqat maydon uzra emas, yig'itlarning kelajagi ustida ham harakatlanayotgandek edi.

Snaryadlar tag'in havoni tilib o'tdi. Tutun dimoqqa urildi. Yer bag'rida yangi tirqish ochildi. Pulemyot ovozlari dalada kezib yurgan mayin qo'shiqni parchalab tashladi. Lekin tabiat bu shovqindan xafa bo'lmadi. U yana o'sha-o'sha sokinligicha qolaverdi.

Nihoyat, kursantlar maqsadga yetdi. Ular o'zlarini, komandir va ustozlari tomonidan o'rgatilgan bilimlariga tayanib, vazifalarni yuqori darajada uddaladi.

– Uddaladimi?  
– Uddaladi!

Uddalaydi-da. Axir bu azamatlar zamonaviy armiyaning bilimli kadrlaridan. Ular so'nggi resurslardan foydalanmoqda. Katta ishonch qarshisida turish, bir tomondan, shukuh va yana, bir tomondan, mas'uliyat yuklaydi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutining 4-bosqich kursantlari yakuniy davlat imtihoni uchun amaliy otishlarni yakunladi. Ular bu mashg'ulotlarda yuqori tayyorgarlik va jangovar ruhni ko'rsatdi.

– Ko'rsatdimi?  
– Nishonni chilparchin qilishni ko'rsatdi.

### Ha, bu botirlar shunday.

Mashq tugagach, tanklar uzoqlashib ketdi. Dala asta sokinlikka qaytdi. Shamol yana maysalar uchidan sirg'alib o'tdi. Qaldirg'ochlar ehtiyotkorlik bilan manzilga oshiqdi.

Osmonda esa hanuz tanish qo'shiq yangraydi.

– **Vatan uchun bor bo'ldik...**

Nima, siz ham uni bir eshitasizmi? Yaxshi. Faqat buni sharti bor: dala-o'quv maydonlaridagi sheryuraklar izidan borib, muhabbat sharobidan bir simirasiz. So'ng o'sha qo'shiq ko'nglingizni to'ldiradi, huzur beradi. Tuproqqa mehringizni oshiradi.

**Kapitan  
Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**





Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Insoniyat tarixidagi buyuk yuksalish harbiy sohaga ham tegishli hisoblanib, Temuriylar renessansi bunyodkori sohibqiron Amir Temur jahon jang san'ati tarixida mohir sarkarda sifatida o'z o'rniga ega.

Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarining "Muqaddima" qismida sohibqironning harbiy siyosati haqida shunday yozgan edi: "...Chingizxon qaysi shahar va viloyatniki bosib olgan bo'lsa, na ul diyordan asar qoldi, na ulusdan xabar. Hazrat sohibqironning baxtiyor zamonida fath etilgan joylar esa nizochilar va dushmanlarning ixtiyorida butunlay chiqdi va ul Hazrat (Temur) dargohidagi vakillar qo'l ostiga o'tdi. U joylar ahvoli oldingisidan ancha yaxshiroq va obodroq, xalqi esa tinch-totuv va xursanddirlar..."

2026-yil 5-fevralda "Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qabul qilingan Prezident qaroriga ko'ra, sarkardaning davlatchilik va harbiy mahorati, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasini xalqaro miqyosda ommalashtirish va targ'ib qilishni kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi.

Darhaqiqat, sohibqiron Amir Temurning harbiy strategiyasi natijasi o'laroq, saltanatning xalqaro diplomatik aloqalari kengayib, Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa, Sharq mamlakatlari o'rtasida savdo va madaniy aloqalar rivojida yagona iqtisodiy hudud, fan va madaniyat taraqqiy etib, o'ziga xos Temuriylar renessansi yaratilishiga zamin bo'ldi.

**Amir Temur turonzaminda hokimiyatga kelgach, yurt tinchligi, birligi va xavfsizligini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib, dastlab sharqda Mo'g'uliston (1371-1389-yillar) va g'arbda Oltin O'rda xonlari izmidan chiqmaydigan Xorazm (1371-1388-yillar) hukmdorlariga qarshi harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Natijada o'lkaga sharqdan Mo'g'uliston, Xitoy va g'arbdan Xorazm orqali kirib keladigan xalqaro savdo yo'llari ochiladi.**

Harbiy tizimda "temir intizom"ga asoslangan, buyruqqa so'zsiz bo'ysunadigan markazlashgan boshqaruv shakllantirilgan. Askarlarning toifasidan qat'i nazar, iqtidori va qobiliyatini rivojlantirish, adolatli va xalqchil ravishda tarbiyalab yetishtirishga qaratilgan tizim shakllantirilgan. Bu haqda "Sipohiylari eng quyi darajadan oliy martabagacha ko'tarish tuzugi" bayoniga ko'ra, harbiy boshqaruvda askarlarning kelib chiqish toifasidan qat'i nazar, iqtidori va qobiliyatini aniqlab, tarbiyalab

yetishtirish tizimi shakllantirilgan. O'nboshi, yuzboshi va mingboshi, lashkarboshi, amirlar xalqchil (demokratik) asosda saylanardi. Ammo katta favj qo'mondonlari "tumanbegi" va "amir ul-umaro" (qo'shinlar boshlig'i, amiri, qo'shin qo'mondon) lari Amir Temur jang taqdiriga sezilarli ta'sir qilishini bilgani uchun o'zining ishonchli kishilarini shaxsan tayinlagan. Chunki bu qo'mondonlar qo'lida katta qo'shin tuman (10 ming) lashkari bo'lgan va muhorabada hal qiluvchi rol o'ynagan. Sohibqiron shaxsan o'zi qo'mondonligidagi "markaz" ("qalb", "g'o'l") qismi "sultoniy jang"larga kirgan.

Qo'shin bo'linmalariga alohida talablar asosida, "uch avlod vakillari" (bobo, o'g'il va nabira)dan uch yuz o'n uch amir tanlab olingan. Aynan uch yuz o'n uch ramziy soni ilohiyligini shunday asoslash mumkin:

- "Zafarnoma" asari

"Muqaddima"sining "Payg'ambarlar haqida so'z, alayhissalom" qismida mashhur sahoba Abu Zar G'iforiyning ma'lumotiga ko'ra, ilohiy bilim, kitob aynan 313 ta payg'ambarga yuborilgan.

Qur'oni karimning Qamar surasi (Makkada nozil bo'lgan 55 oyatdan iborat)da Badr urushida katta ustunlikka ega bo'lgan makkalik g'ayridinlarning to'qqiz yuz ellik jangchi, yetti yuz tuya, yuzta oti, yetarlicha qurol va boshqa zarur ashyolari bo'la turib, musulmonlar esa uch yuz o'n uch kishidan iborat musulmonlarning Allohning madadi bilan g'olib chiqishi ma'lumoti ham keltirilgan.

- Niso surasida jami payg'ambarlar soni bir yuz yigirma to'rt mingta va rasullar soni esa uch yuz o'n uchta, deyilgan.

Qo'shinning harbiy qudrati - jangovar shaylikka, tarkibiy tuzilmaga, ilg'or harbiy texnika va qurol-aslahaga, harbiy kiyimlar, jangovar bayroqlar, harbiy musiqa kabi qator jihatlariga bog'liq bo'lgan.

Harbiy sohaga tegishli masalalar "Tuzuklar"da qat'iy belgilab qo'yilgan: harbiy mansab va lavozimlar, maoshlar, lashkarboshilar bilan askarlar muomala odobi, bo'linmalarning harbiy texnika va qurollari hamda jangovar atributlar, ta'minot, yosol tuzilishi va tarkibi, soni kabilar.

Hozirda istilohda bo'lgan "qo'shin" atamasi bilan o'sha davrdagi "koshun" so'zining farqi bor. "Koshun" deb

SOHIBQIRONNING

SAN'AT  
DARAJASIDAGI  
YURISHLARI



50 dan 1 000 kishigacha bo'lgan yoki kichikroq harbiy bo'linmani anglatgan, shu jihatdan koshun va qo'shin istilohlari farqlanadi.

Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shin sonini "hisobsiz", bunday yirik qo'shinni Chingizxondan beri hali ajam mamlakatlari va falak hali ko'rmagan edi, deb yozadi. Shuningdek hali hech bir shoh qo'shinni bunday orasta tartib bilan mukammal etmagan edi va ularning barchasi nomdor bahodirlardir:

*Cherikiki, yo'q erdi anga hisob,  
Bari pahlavon va bari kamyob.*

*Chu sonsiz edi, cheriki shahriyor,  
Barisi bahodir, bari nomdor.*

*Urush kunida barcha chun pili mast,  
Birisi tutub tig'-u tir ba dast.*

Qo'shin soni taxminan 400–800 minggacha bo'lgan. Qunduzcha jangida 300 ming, Hindiston yurishida 92 ming, Anqara jangida 300 (400) mingga yaqin, Xitoy safariga otlangan qo'shin soni 270 mingdan ortiq bo'lgan. **Ta'kidlash joizki, qo'shin soni aksariyat hollarda dushman qo'shinidan kam bo'lgan va strategik tadbirlar natijasi o'laroq, g'alabalarga erishilgan.**

Qo'shin yetti qo'ldan iborat bo'lib, bulardan uchtasi: markaz, barong'or, javong'or, ikkita manglay va ikkita qo'l himoyasi uchun qunbul qismlari bo'lgan. Qo'shinning bunday joylashtirishning o'ziga xos tomoni shunda ediki, uning qanot-qismlari markaziy qismga qaraganda ancha kuchli bo'lgan, bundan maqsad jangda asosiy taktika amaliyotlarni qo'llash bo'lgan.

"Uluslar, qo'shinlar va tumanlarning amirlari ma'muriyati tuzugi"ga ko'ra, Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyoning katta qismida yashagan qabilalardan lashkarboshilikka tayinlangan. Jumladan, "Qaramog'imdagi qirq aymoqdan o'n ikkitasiga – barlos, tarxon, arg'in, jaloyir, tulkichi, do'lday, mo'g'ul, sulduz, to'qay, qipchoq, arlot, totorga tamg'a berilsinkim, bular mening xos navkarlarim bo'lib hisoblansinlar".

**Muntazam qo'shinda turli mamlakat va elatlardan harbiy iqtidori bilan nom chiqargan pahlavonlar, amirlar xizmat qilganlar.** Xususan, Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlardan tashqari Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismida apardi qabilalari, Afg'onistonning Xuroson viloyatida yashagan arlot turkiy urug'lari, Mo'g'ulistonda Otboshi atroflarida yashagan makritlar, Chag'oniyon, Hisor vodiysi va Shimoliy Afg'onistonda Balx viloyatida yashagan sulduzlar, turkmanlar, uyg'urlar, Dashti Qipchoq va Oltin O'rdada yashagan o'zbeklar urug'-qabilalarining dongdor amirlari, nom chiqargan pahlavonlari xizmat qilgan.

**Ibn Arabshoh bu haqda shunday yozadi:** "...Turon erlari, Eron botirlari, Turkiston yo'lbarlari, Badaxshon

qoplonlari, Dasht (Qipchoq) va Xitoy lochinlari, Mo'g'ul qirg'iyarlari, Jato yirtqichlari, Xo'jand ilonlari, Andikon ajdaholari, Xorazm qurt-qumursqalari, Jurjon zararkunandalari, Sag'oniyon burgutlari, Hisori Shodmon yovuzlari, Fors suvoriylari, Jabal, Xuroson sherlari, sirtlonlari, Mozandaron (moda) sherlari, Jibol yirtqich (hayvonlari), Rustamdor va Talqon timsohlari, Huz(iston) ilonlari, chuvalchaglari, tayolisa kiygan Isfahon bo'rilari, Ray, G'azna va Hamadon jonivorlari, Hind, Sind va Mo'ltan fillari, Lur viloyatlari qo'shoqlari, G'ur baland tog'lari ho'kizlari, Shahrazur chayonlari va Askar Mukram va Jundi Saabur gazandalari bor edi. ...Ularni hech bir devon sig'dira olmas va hech qanday hisobchining daftari hisobiga yetmas edi. ...Gapning qisqasi, ...zafar unga yetakchi, baxt unga yo'lbo'shchi, qazo (unga) muvofiq, qadar (unga) madadkor, Tangri taoloning xohishi uni (olg'a) boshlovchi, (u) bandalar va mamlakatlar tadbirida aziz va ulug' tangrining irodasi uning haydovchisi bo'lgan holda Temur yo'lga chiqadi.

Harbiy harakatlarda chuqur o'ylangan strategiya asosida taktik va operativ amaliyotlar olib borilgan. Ta'kidlash joizki, aksariyat hollarda Amir Temur qo'shini dushman qo'shinidan ko'p bo'lmagan bilan belgilanadi.

**Amir Temur jang san'atining tarkibi bo'lgan strategiyalar:** maqsadga jangsiz erishish, kuchlar nisbati noteng bo'lgan janglarda oz sonli qo'shin bilan talafotsiz yoki kam talafot bilan zafarlarga erishishda turli ruhiy hujum va harbiy hiylalar qo'llagan. Chalg'itish, qo'qqisdan hujum qilish, qurshovga olish va boshqalardan foydalanilgan. Bunda "qanchadan qancha oz sonli guruhlar Allohning izni bilan ko'p sonli guruhlarga g'olib kelgan", kabi ko'pgina Qur'oni karimda aks etgan g'oyalar strategiya negizi bo'lib xizmat qilgan.

Saltanatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlashda, zafarlarga erishishda razvedka (maxfiy xizmat faoliyati, xabargir, ayg'oqchilik, josuslik) ning o'rni katta bo'lgan.

Xavfsizlik masalalari olimlar H. Sodiqov va F. Xodjixodjayev tomonidan muvaffaqiyatli tadqiq etilgan. Mavzu tadqiqotchisi H. Sodiqovning sohibqiron harbiy ilmining dahosi, o'zbek razvedkasining asoschisi, butun dunyo miqyosida ish ko'rgan maxfiy xizmat tashkilotchisidir, degan xulosasiga to'la qo'shilish mumkin.

Xabarlarining nazorati va tezkorligi qattiq nazorat ostiga olingan. Razvedkada turli kasb egalari xizmatidan unumli foydalanilgan.

Maxfiy xizmat faoliyati dushmanning geografik o'rni, (tog', dasht, suv zaxiralari), ichki va tashqi siyosati, mudofaa tizimi kabi turli ma'lumotlari tahlili asosida harbiy strategiya ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu xizmat faoliyati

saltanat qudratini ta'minlashga, ichki va tashqi siyosati, diplomatiya masalalari, geosiyosiy maydonda harakatlanishini belgilashga ham xizmat qilgan.

Amir Temur qo'shindagi sog'lom ma'naviy muhitga zafarlarni quvvatlovchi dalili sifatida qaragan. Amir Temur qudratli qo'shinni boshqarishda nafaqat harbiy ilmga, balki ma'naviyat ham tayangan. Ma'naviy yetuklik askarlarni vatanparvarlikka, qahramonlikka, jasurlikka yetaklashini yaxshi tushungan sohibqiron askarlarning jismoniy va harbiy tayyorgarligi bilan birga ma'naviy dunyoqarashiga ham katta e'tibor qaratgan.

**"Navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilish tuzugi"da navkarlarning beklarga, beklarning beklarbegiga bo'ysunish o'dobi qat'iy belgilab berilgan. Navkarlar o'z sardoriga muloqotda "amirim", "sardorim" deya hurmat bildirishgan.**

Askarlarning harbiy ilmidan tashqari, ma'naviy dunyosi ham boy bo'lgani haqida Ibn Arabshoh bergan ma'lumotlar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, muarrix askarlarni muhoraba maydonida devlarga o'xshatsa, ularning ma'naviy dunyosini esa maloikalarga qiyoslaydi.

Ular turk jangchilaridan iborat yigitlarki, ovozlari momaqaldiroq tovushini na his qiladi, na sehr qoldiradi. Muqobalada ular husnda maloikalar misoli, muqotalada ular devlar kabidir.

Amir Temur lashkarida "temir intizom" yo'lga qo'yilgan bo'lib, harbiy jinoyatlar yasoq qonunlari bo'yicha jazolangan va bunda oddiy askardan tortib, to amirlarga ham bir xil qoida amal qilgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida bu haqda batafsil ma'lumot beradi. Mardlik ko'rsatganlar mukofotlangan, jang maydonidan qochganlar nafaqat qo'shin, balki xalq oldida izza qilingan. Jumladan, Husayn So'figa qarshi birinchi marta Xorazm sari lashkar tortib borilganda, Xorazm qal'asini olish jarayonida sohibqiron buyrug'iga ko'ra, Amir Ko'cha Malikka xandaqqa tushishni buyurganiga qaramay, unda qo'rqinch g'olib kelib, tusha olmagan uchun uni o'sha kuni aybi uchun cho'p yasoq etdilar. So'ngra eshak dumiga bog'lab, Samarqand tomon haydadilar. Yoki bahodirligi bilan mashhur bo'lgan Barot Xoja Ko'kaltoshni shahar himoyasiga chiqmagani uchun soqolini qirib, yuziga upa surib, shahar kezdirdigan.

Shunday jazolar oddiy askardan tortib, to shahzodalargacha bir xil berilgan. Masalan, Misrga yurish chog'ida Amir Temur nabirasi (qizi Aka Begimning o'g'li) Sulton Husayn dushman tomonga o'tib ketganida cho'p yasoqqa tortilgan.

**Vaqt-vaqti bilan o'tkazib turilgan lashkar ko'riklarida qo'shinning harbiy tayyorgarligi,**

**jangovar shayligi, harbiy qudrati, rag'batlantirish, mukofotlash masalalaridan tashqari, lashkarning vatanparvarlik ruhini ko'tarishda ahamiyati katta bo'lgan.**

Ushbu ko'riklarda bo'linmalar o'zlariga tegishli musiqalar jo'rligida bayroq va tug'lari, maxsus kiyimlari, mukammal qurol-yaroqlari, muloqot madaniyatini intizom bilan namoyish etishgan va bu albatta, qo'shinning yanada qudratli bo'lishiga xizmat qilgan omillardan bo'lgan.

Sohibqironning har bir bo'linma yoniga borishi, lashkarboshi amirlar sadoqatining izhori sifatida duo va olqishlarini namoyish etishi harbiy an'ana hamda qadriyatlar rivojiga hissa bo'lib qo'shilgan.

Maydonda turli qismlarga taalluqli ko'k, binafsha, qizil va qora rangli bayroqlar hilpirab turgan. Ya'ni har bir favjning qurol-yarog'i, bayrog'i, kiyim-kechagi, jibasi qizil, ikkinchi guruhning rangi ko'k, uchinchi guruhning rangi oq, to'rtinchi favjning rangi binafsha, beshinchi guruhning rangi sariq bo'lgan.

**Maxsus zirhli qismlar (manbada "bo'lak" deb keltirilgan)**dan iborat bo'lgan otliq suvoriylar boshlaridan to otlarining tuyog'igacha temir sovtlarni kiyib, qurol-yarog'larini olib, ulovga minib, ko'rik uchun saf rostlagan.

Harbiy strategiyaning negizi bo'lgan Buyuk Ipak yo'lida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan barcha uzoq yillik mashhur tarixiy yurishlar, jumladan Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi muhorabalar natijasida Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishi, Hindiston yurishi orqali janubiy yo'nalishi, Shom o'lkalari yurish esa g'arbiy yo'nalishni, Rum yurishi markaziy yo'nalishda saltanatning diplomatik va savdo aloqalari rivoji uchun xizmat qildi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa, Sharq mamlakatlari o'rtasida ilmiy-madaniy aloqalar rivoji Yevroosiyo qit'asida yagona iqtisodiy zamin yaratilishiga, fan va madaniyat taraqqiy etishi, o'ziga xos **Temuriylar renessansini** yaratilishiga zamin yaratgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, **"Tuzuklar"da harbiy boshqaruv tizimi, harbiylar muloqot madaniyati, muntazam qo'shinning jangovar salohiyati va ta'minoti, strategiya va taktika uslublari, razvedka, "temir intizom" va jazo masalalari, harbiy ko'riklar kabi barcha masalalar qat'iy belgilab berilgan.** Shuningdek, Amir Temur nafaqat muzaffar sarkarda sifatida yurtni himoya qildi, balki harbiy sohada amalga oshirgan islohotlari jahon jang san'ati, harbiy an'ana va qadriyatlar rivojida ham o'z aksini topdi.

**Ozoda RAHMATULLAYEVA, Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, dotsent**

Kelajagimiz bunyodkorlari



## MARKAZIY HARBIIY OKRUGDA YANGI TIZIM QANDAY ISHLAYAPTI?

**Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat e'tirof etilmoqda, balki amaliy ishlarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Ayniqsa, harbiy sohada yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ularni vatanparvarlik, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, kelajakda jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolari etib shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan.**

Shu ma'noda, Markaziy harbiy okrug qo'shinlarida yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda har bir yosh taqdiri, uning orzu-intilishlari va kelajagi davlat miqyosidagi muhim masala sifatida qaralmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yilning 10-martidan boshlab, har haftaning payshanba kuni "Yoshlar kuni" etib belgilandi. Bu tashabbus yoshlar bilan ishlash tizimiga yangi ruh, yangi mazmun olib kirdi. Endilikda har haftaning payshanbasi nafaqat sana, balki yoshlar hayotidagi muhim burilish nuqtasiga aylanmoqda.

Markaziy harbiy okrugda ushbu kun doirasida o'tkazilayotgan tadbirlar aniq reja, puxta yondashuv va eng muhimi – samimiy muloqot asosida tashkil etilmoqda. Okrugga birlashtirilgan, otaliqqa olingan yoshlar, umumta'lim maktablari o'quvchilari, "Jasorat maktabi", "Temurbeklar maktabi" hamda "Jaloliddin Manguberdi" akademik litseyi o'quvchilari bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar buning yorqin misolidir.

Bu uchrashuvlar oddiy suhbat emas. Bu – yoshlar qalbiga yo'l topish, ularning dardini tinglash,

orzularini anglash, muammolariga yechim izlash maydoni. Har bir muloqotda yoshlarning fikri qadrlanadi, tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi.

Alohida ta'kidlash joizki, yoshlar bilan ishlash faqat uchrashuvlar bilan cheklanmayapti. "Mahalla yettilligi" bilan hamkorlikda har bir yoshning ijtimoiy holati chuqur o'rganilmoqda. Ularning yashash sharoiti, ta'lim jarayoni tahlil qilinib, maktab rahbariyati va ota-onalari bilan bevosita muloqot yo'lga qo'yilgan.

Harbiy xizmatchilar tomonidan to'plangan ushbu ma'lumotlar asosida har bir yosh bilan individual ishlash tizimi shakllantirilgani esa eng muhim yutuqlardan biridir. Chunki har bir yosh – alohida olam, alohida taqdir. Uni tushunish esa e'tibor va mas'uliyatni talab qiladi.

Mazkur tizim natijasida yoshlarning ijtimoiy muammolari o'z vaqtida aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda. Eng muhimi, yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilib, ular kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga yo'naltirilmoqda.

May oyi davomida o'tkazilayotgan tadbirlar esa bu tizimning izchil va mukammal

yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Jumladan, o'yning birinchi payshanbasida birlashtirilgan yoshlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilib, ularning muammolari o'rganiladi va aniq choralar belgilanadi.

Ikkinchi payshanba texnikum va kasb-hunar maktablari o'quvchilari bilan uchrashuvlarga bag'ishlanadi. Bu uchrashuvlarda yoshlar o'z fikrlarini erkin bayon etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan o'tkazilayotgan muloqotlar ham e'tibordan chetda qolmayapti. Bu esa harbiylarning ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Uchinchi payshanba esa yana birlashtirilgan yoshlar bilan ishlashga bag'ishlanib, ularning muammolari chuqurroq tahlil qilinadi. Ayniqsa, bitta askar – bitta kasb tamoyili asosida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar yoshlar qalbidagi mehnatga hurmat, kasbga qiziqish uyg'otmoqda. Ular harbiy hayot bilan yaqindan tanishib, kelajak rejalarini haqida aniq tasavvurga ega bo'lmoqda.

To'rtinchi payshanba esa muddatli harbiy xizmatchilar va talaba-yoshlar bilan

uchrashuvlarga bag'ishlanadi. Bu uchrashuvlar o'zaro ishonch, hurmat va ochiqlik muhitida o'tib, yoshlarning savollariga atroflicha javob berilmoqda.

Ko'rilayotgan bunday keng qamrovli va tizimli chora-tadbirlar natijasida Markaziy harbiy okrugda yoshlar bilan ishlash sifati mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Eng muhimi, yoshlar qalbidagi Vatanga muhabbat, milliy g'urur va daxldorlik hissi tobora mustahkamlanib borilmoqda.

Zero bugungi e'tibor – ertangi ishonch demak. Har bir qo'llab-quvvatlangan yosh – kelajakdagi mustahkam tayanch.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat bugungi kun ehtiyojiga javob bermoqda, balki kelajak poydevorini ham mustahkamlab bermoqda. Chunki vatanparvar, bilimli, tashabbuskor va fidoyi yoshlar – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng ishonchli kuchi.

**Mayor  
Muzaffar MURODOV,  
Markaziy harbiy okrug  
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar  
boshqarmasi katta ofitseri**



Kecha va bugun

**Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, axborot oqimining keskin ortib borishi yoshlar ongiga turli xil g'oyalar ta'sirini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni mustahkam e'tiqod, qat'iy fuqarolik pozitsiyasi va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlikni shakllantirishda tarixiy merosning o'rne beqiyosdir. Chunki tarixiy meros bu millatning o'zligini belgilovchi, uning kim ekanini anglatib beruvchi asosiy manbadir.**

O'zbekiston hududi azaldan buyuk davlatlar, qudratli sarkardalar va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar Vatani bo'lib kelgan. Bu zamin farzandlari yurt ozodligi, xalq tinchligi va hudud daxlsizligi yo'lida mardona kurash olib borgan. Ana shu boy tarixiy tajriba va meros bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixiy meros – bu nafaqat o'tmishdan qolgan yodgorliklar yoki qadimiy asarlar yig'indisi, balki unda mujassam bo'lgan ruh, qadriyat va tajriba hamdir. U yoshlar ongida quyidagi asosiy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

**Birinchidan**, tarixiy xotira milliy o'zlikni anglashga yordam beradi. O'z tarixini bilgan yosh avlod o'z ildizlarini chuqurroq his qiladi. Ajdodlari qanday sinovlardan o'tgani va qanday jasorat ko'rsatganini angelaydi, bu esa o'z navbatida, ularga kuch bag'ishlaydi.

**Ikkinchidan**, tarixiy qahramonlar timsoli harbiy-vatanparvarlikning yorqin namunasi hisoblanadi. Ularning hayoti va faoliyati yoshlar uchun ibrat maktabidir. Qahramonlar jasorati haqida o'rganish yoshlarni qat'iyatli, jasur va fidoyi bo'lishga undaydi. Bu esa harbiy xizmatga bo'lgan hurmatni oshiradi.

**Uchinchidan**, tarixiy meros orqali tinchlikning qadri yanada chuqur anglanadi. Urushlar, bosqinlar va og'ir sinovlar haqida ma'lumotlar yoshlarni osoyishta hayotning qadriga yetishni o'rgatadi.

**To'rtinchidan**, tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlari yoshlar tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Bunday maskanlarga tashrif buyurish orqali yoshlar tarixni "jonli" tarzda his qiladi. Muzeylar, memorial majmualar,

## HARBIY-VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA



## TARIXIY MEROSNING O'RNI



qadimiy qal'alar va ziyoratgohlar ularda chuqur taassurot qoldiradi va bu taassurot uzoq vaqt saqlanadi.

**Beshinchidan**, tarixiy merosning ta'lim tizimidagi o'rni alohida e'tiborga loyiq. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini chuqur o'qitish, harbiy-vatanparvarlik ruhida mashg'ulotlar tashkil etish orqali yoshlar ongida zarur tushunchalar singdiriladi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish bu jarayon samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, tarixiy merosni targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, hujjatli filmlar va interaktiv loyihalar orqali tarixiy mavzularni yoshlar uchun qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazish mumkin. Bu esa ularning tarixga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

**Harbiy-vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:**

tarixiy qahramonlar hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish; yoshlarni tarixiy obidalar va muzeylarga muntazam jalb etish; harbiy-vatanparvarlik ruhida tadbirlar va musobaqalarni tashkil etish;

ta'lim jarayonida tarixiy merosni chuqur va tizimli o'rgatish; ommaviy axborot vositalarida tarixiy mavzularni keng yoritish; yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish.

**Shuningdek, tarixiy meros asosida yoshlar ongida quyidagi muhim fazilatlarni shakllantirish mumkin:**

Vatanga sadoqat va fidoyilik; jasorat va matonat; milliy g'urur va iftixor; burch va mas'uliyatni his etish; tinchlik va barqarorlikni qadrlash; mustaqil fikrlash va qat'iyatlilik kabilar.

**Yana bir muhim jihat**

**shundaki**, tarixiy meros yoshlarni faqat o'tmishga bog'lab qo'ymaydi, balki ularni kelajakka yo'naltiradi. Ajdodlar tajribasi asosida yoshlar bugungi kun talablariga mos ravishda harakat qilishni o'rganadi. Bu esa ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan, shu bilan birga milliy qadriyatlarga sodiq shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, tarixiy meros – bu harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining eng muhim va samarali manbalaridan biri. Uni chuqur o'rganish, asrab-avaylash va keng targ'ib qilish orqali yosh avlodni Vatanga sadoqatli, jasur va mas'uliyatli insonlar etib voyaga yetkazish mumkin.

Zero o'z tarixini bilgan, ajdodlari bilan faxrlangan va ularning yo'lini munosib davom ettira oladigan avlodgina yurt tinchligi va taraqqiyotining haqiqiy kafolati bo'la oladi.

**Mayor  
Muhiddin TURG'UNOV,  
Harbiy xavfsizlik va mudofaa  
universiteti Harbiy aviatsiya  
instituti ilmiy xodimi,  
vzvod komandiri**

Surat tahririyat arxividan o'indi

Bir kino haqida

# “HOSHIMOV”

MILLIY ARMIYAMIZ G'ALABASI HAQIDAGI  
YANGI BADIY FILM

Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi hamda Mudofaa vazirligi hamkorligida “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Hoshimov” nomli badiiy filmni suratga olish ishlari boshlandi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan yilda o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida mediamakonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhida ishlarini kuchaytirish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu vazifalardan kelib chiqib, Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tomonidan kinoijodkorlar o‘rtasida 2025-yilda davlat buyurtmasiga asosan ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kinoloyihalar uchun ijodiy tanlov e‘lon qilindi.

Ushbu tanlovning harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishiga 100 dan ortiq ijodiy ish topshirildi. Kinematografiya agentligida tashkil etilgan badiiy kengash tomonidan ushbu ijodiy ishlar ichidan **ijodkor Islomjon Qo‘chqorov qalamiga mansub “Hoshimov” (ishchi nomi) filmi uchun ssenariy tanlov asosida tanlab olindi** va ishlab chiqarishga ruxsat berildi.

**Film asosida real voqealar yotadi.** 2019-yil. Xalqaro Armiya o‘yinlari. Dunyoning o‘ndan ortiq davlatlaridan kelgan jamoalar jam bo‘lgan ushbu musobaqada O‘zbekiston Mudofaa vazirligining “Tank biatloni” jamoasi ilk bor ishtirok etishiga qaramay, o‘z divizionida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, bayrog‘imizni baland ko‘targan edi. Ssenariy muallifi Islomjon Qo‘chqorov mana shu tarixiy g‘alaba zamirida yotgan mashaqqat va sinovlarni, harbiylarning Vatanga muhabbati va sadoqatini, ularning bukilmaz irodasini qalamga olgan. **Shohrux Rasulov rejissorlik qilayotgan filmda milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, harbiy jamoalarimizning xalqaro maydonlarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlari hamda harbiy xizmatchilarimizning matonati va fidoyiligi badiiy talqin orqali yoritiladi.**

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo‘shinlar institutida filmning ilk tasvirga olish ishlari boshlanishi munosabati bilan tantanali marosim o‘tkazildi. Unda mudofaa vazirining o‘rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev va Kinematografiya agentligi rahbari Shuhrat Rizayev

ishtirok etib, mazkur loyihaning ahamiyati haqida so‘z yuritdi.

**Kinoijodkorlar uchun Mudofaa vazirligi tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O‘quv mashqlar maydonlari, trenajyorlar, harbiy texnika vositalari bularning barchasi ijodiy jamoaga jarayonni bor haqiqati bilan tasvirlashga imkon bermoqda.**

Filmda Karim Mirhodiyev, Adiz Rajabov, Sirojiddin Sattarov va Abbos Ibrohimov kabi taniqli aktyorlar rol ijro etmoqda. Ular nafaqat harbiy libos kiygan qahramonlarni, balki uyda farzandini kutayotgan ota, Vatanga sodiq askar va g‘alaba uchun borini beradigan do‘st timsollarini gavdalandiradi.

O‘zbek kinosining mustaqillik yillaridagi tarixida harbiylar hayoti haqida ishlangan va tomoshabinlar mehrini qozongan “Sardor-1”, “Sardor-2”, “Muqaddas burch”, “Ostona” kabi badiiy filmlar milliy armiyamizning shakllanish davrini, askar va ofitserlarimizning ichki olamini ochib bergan bo‘lsa, bugungi kunda bu an‘ana yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Keyingi yillarda ushbu mavzuga davlat darajasida alohida e‘tibor qaratilishi natijasida, o‘zbek armiyasining xalqaro maydonda oshib borayotgan obro‘si va harbiylarimizning nufuzli musobaqalardagi zafarlarini aks ettiruvchi yuksak saviyadagi ijodiy ishlar safi kengaymoqda. Bu kabi badiiy asarlar milliy armiyamizning qudratini namoyish etuvchi, xalq va armiya o‘rtasidagi ma‘naviy rishtalarni mustahkamlovchi muhim ko‘prikdir.

**Zero xalqaro maydonlarda bayrog‘imizni baland ko‘tarayotgan zamondosh qahramonlarimiz obrazi kinolarda gavdalanar ekan, bu har bir yurtdoshimiz qalbida Vatan himoyachilariga nisbatan cheksiz hurmat va iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi.**

“Hoshimov” filmi Yangi O‘zbekiston armiyasidagi islohotlarning inson taqdiridagi aksini o‘zida namoyon qilib, mazkur kartina yoshlarimizni mardlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalqimiz qalbida milliy armiyamizga bo‘lgan ishonch va faxr tuyg‘usini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Furqat ERGASHEV,**  
“Vatanparvar”

"Kitobxonlik" tanlovi nomzodlariga

# O'Z SAYYORANGNI O'ZING ASRA

Har insonning ichida bir Kichkina shahzoda bor. Har ko'ngilda bitta uchuvchi yashaydi. Odamzor aro kim tulki, kim ilon ekanini ajrata olmaymiz, shuning uchun ham hamma bilan do'st bo'lishga majburmiz. Inson yashar ekan, o'zi uchun sayyora yaratadi, aslini olganda o'sha sayyorada tug'iladi. Insonlarni Kichkina shahzoda deb oladigan bo'lsak, kindik qonimiz to'kilgan tuproq bizning Vatanimizdir. Bejiz hashamatli saroylarda yashab ham qishloqni sog'inmaymiz-da. "Odamlar qishlog'ini sog'inish uchun shaharga ko'chib ketishadi". Bu mening ko'ksimda yashayotgan shahzodaning xulosasi. Chunki doim ham yoningdan oqqan suvning qadri bo'lmaydi, hamma narsa yo yo'qotilgach, yo uzoqlashganda ahamiyatga moyil bo'la boshlaydi.

Bilasizmi, ba'zida yurak siqilganida, g'ussaga to'lib ketganda quyosh botishini kuzatadigan sayyorangiz bo'lsin. Hech kimga bildirmay o'sha yerga borib quyosh botishini kuzating. Esingizda bo'lsa, "Kichkina shahzoda" kitobida ham shahzodaning shunday joyi bo'lardi. Bir safar Kichkina shahzoda qirq to'qqiz marta quyosh botishini kuzatadi. Meni doim mahzun qiladigan holat Kichkina shahzoda o'shanda nimadan bunchalik g'ussaga botgani.

Necha kundirki bir narsa haqida o'ylayman, yozuvchi bu asarni qanday yozgan ekan, yoki rostdan ham yo'lida Kichkina shahzoda uchraganmi? Bola nigohim bilan javob beradigan bo'lsam, "albatta" deyman. Katta odamlarday fikrlasam, to'qima deb javob beraman. Lekin qanday qilib bu darajada go'zal yozish mumkin, deyman yana xayolan. Har nima bo'lganda ham men sevib qayta-qayta o'qigan kitoblarning eng yaxshisidir bu asar.

## MAS'ULIYAT VA BURCH

Mana necha kundirki, shu asar ta'sirida yuribman. Kitobdan yangi nimalarnidir kashf etmoqchidekman, go'yo. Qayta o'qish jarayonida bir narsaga

duch kelib qoldim. Sayyorasini sog'inayotgan bolaga, ya'ni Kichkina shahzodaga bundan bir necha yillar muqaddam men ham olis yurtlarda musafir bo'lib yurgan kezlarim qaysidir ma'noda mana shu sog'inchni his qilganman. U paytlari bunaqa kitob borligi haqida ham bilmasdim. Ammo mening ham sayyoram bor edi.

Uzumzor bog'ining biqiniga qurilgan kichik chaylada olis osmonlarda sayr qilib yurgan yulduzlarni kuzatgan nelnaridir orzu qilar edim.

Bugun o'ylab ko'rsam, mana shu mening kichkina sayyoram ekan. Bilasizmi, bu sayyora kattalashib qishloqqa, shaharga, butunboshli O'zbekistonga aylandi. Bugun esa men o'zimni sayyoramning himoyasiga chiqqan askardek his qilaman. Xuddi Kichkina shahzodadek. Asarda keltirilgan bir iboraga e'tibor qarating. "**Sen o'rgatgan narsang uchun umrbod javobgarsan**". Aytish mumkinki, men ham o'sha bolalik bog'larimning har bir maysa-yu begona o'tigacha daxldorman.

Xayolimda yana bir narsa yalt etgandek bo'ladi, shu lahzada. **Vatan tinchligini asrayotgan har bir askar ham Kichkina shahzodalar emasmi, ularning chekiga tushgan ulkan bir sayyora mana shu Vatan**

**tuproq'ini asrab-avaylash, javobgarlik emasmi?** Albatta, shunday. "Kichkina shahzoda" asari, shunchaki, bolalar uchun kitob emas, balki butun insoniyat uchun yaratilgan mo'jizaviy dasturulamadir. **Har bir harbiy xizmatchi Vatan, xalq va o'z safdoshlari oldida mas'ul bo'lmog'i kerakdir.** Qurol ushlab faqat kuch emas, balki javobgarlik ekanini anglab yetish uchun ham bu kitobni bir varaqlab o'tish darkor deyman.

## INTIZOM VA KUNDALIK MEHNAT

Kitob sahifalarini ochar ekansiz, intizomli bolakayning kundalik mehnatiga ko'zingiz tushadi. Agar bir kun o'z sayyorasini baobablardan tozalama, sayyorani o'sha daraxt bosib olishi mumkin. Kichik beparvolik katta xavfga aylanishi tayin. Keling buni ham harbiy xizmatchi misolida taqqoslab ko'ramiz. **Bejiz harbiy xizmatchilar, askarlar tartib-intizomga o'rgatilmaydi, har bir yigit o'z Vatani yomon ko'zlardan asrashga daxldordir.** Bunda hushyorlik, mehnat, chiniqish qaysidir ma'noda o'z so'zini aytadi. Intizomi joyida bo'lgan armiyaga hech qaysi yomon maqsadli kuchlar hamla qila

olmaydi. Agarda shunaqa bo'lgan taqdirda ham intizomli, mas'uliyatli harbiy xizmatchi o'z sayyorasini himoya qiladi. Kichkina shahzoda o'z mitti sayyorasini qanday mehr bilan asragan bo'lsa, harbiy ham Vatani shunday himoya qiladi. **Chunki chinakam himoya qurol bilan emas, yurakdagi mas'uliyat bilan boshlanadi.**

Xulosa qilib aytganda, "Kichkina shahzoda" asari inson qalbiga ezgulik, mehr, mas'uliyat va sadoqat tuyg'ularini singdiradigan noyob asardir. Kichkina shahzoda o'z sayyorasini qanday mehr bilan asrasa, inson ham o'z Vatani, oilasi va qadriyatlariga shunday muhabbat bilan yondashishi kerak. Asarda ilgari surilgan fikrlar nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham hayotiy saboq bo'la oladi.

Harbiy xizmatdagi insonlar uchun bu asar mas'uliyat, intizom va burch tushunchalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Chunki **Vatanni himoya qilish faqat qurol bilan emas, balki qalbdagi sadoqat, hushyorlik va fidoyilik bilan amalga oshadi.** Har bir inson o'z "sayyorasi" – ya'ni Vatani, oilasi va orzulari uchun javobgar ekanini unutmasligi kerak.

Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar"





# “YOSH CHEGARACHILAR” MUSOBAQASI 15 yoshda

“Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasi bu – shijoat, iroda, aql-zakovat va matonat bellashuvi. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi hamda qator vazirlik va idoralar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi hamda viloyatlar hokimliklari hamkorligida o'tkazib kelinayotgan ushbu musobaqaning joriy yildagi 15 yillik yubiley mavsumi ko'tarinki ruhda tashkil etildi.

Viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasining chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlaridan tashkil topgan 13 ta jamoa tarkibidagi 130 nafar o'g'il-qiz dastlabki ikki bosqich – ya'ni tuman (*shahar*) va viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika (*final*) bosqichida jam bo'ldi.

Rejaga ko'ra, poytaxtimizda kutib olingan jamoalar, dastlab O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi binosida yig'ildilar. Bu yerda ular agentlik mas'ullari va sarhadlarimiz himoyachilari bilan suhbatlashib, DXX Chegara qo'shinlari faoliyati haqida hikoya qiluvchi videoroliklarni tomosha qildi.

Navbatdagi manzil “Zakovat Arena” majmuasi bo'ldi. Bu yerda ertamiz egalari musobaqa tashkil etilganining 15 yilligi munosabati bilan har biri olti nafardan ishtirokchini tashkil etuvchi jamoalarga bo'linib, “Zakovat” intellektual

bellashuviga kirishdi. Ikki turdan iborat o'yinda tarixiy, ilmiy va mantiqiy mazmundagi jami 24 ta savol o'ynalib, eng yuqori natijani Namangan viloyatining “O'zbekim o'g'lonlari” jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Sirdaryo viloyatining “Burgutlar” jamoasi ikkinchi va Buxoro viloyatining “Burgutlar” jamoasi 3-o'rinni egallab, ko'chma kubok hamda diplom bilan taqdirlandi.

Shu kuni yoshlar uchun “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasiga sayohat ham tashkil etildi. Bog'dagi “Millat fidoyilari” xiyobonida kelajagimiz bunyodkorlari mustaqillik yillarida yurt tinchligini asrash yo'lida jasorat namunalarini ko'rsatgan qahramon o'g'lonlar poyiga gulchambar qo'yib, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Tarix va bugunni bog'lovchi ushbu majmua barchada katta taassurot qoldirdi.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimi ko'tarinki ruhda boshlandi. Unda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari mas'ullari, hamkor vazirlik

va idoralarning vakillari ishtirok etdi. Safda qad rostlab turgan o'g'il-qizlarga omad va muvaffaqiyatlar tilab, musobaqa shartlariga start berildi.

Dastlabki shartda jamoalarning safda shaxdam qadamlar bilan yurish va qo'shiq aytib o'tish ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi. Navbatdagi maxsus harbiy liboslar, albom, vimpel va kalashnikov avtomati maketi ko'rigi davomida jamoa sardorlari o'zlarining notiqlik mahoratlarini namoyon etib, shartga ko'rilgan tayyorgarlik jarayonini batafsil sharhlab berdi.

Musobaqani shiddat bilan boshlagan jamoalar kun davomida bilimlar sinovi, AKM avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, qisqa hamda uzoq masofaga yugurish, turnikda tortilish kabi shartlarni ham mahorat bilan uddaladi.

Uch kun davom etgan musobaqaning ikkinchi





vatanparvarlik qo'shiqlari kuylandi.  
 - 15 yillik yubiley mavsumi ko'tarinki ruhda o'tdi. Yoshlarimiz yildan yilga zakovatli, epchil, chaqqon va iste'dodli ekanini namoyon etib, bizni hayron qoldirmoqda. Umuman olganda, mazkur bellashuv ishtirokchilarning har qanday vaziyatga tez moslasha olish, jasurlik, fidoyilik kabi hislatlarini shakllantirishi bilan birga, kelgusida ularning kasb tanlash borasidagi qarashlarini shakllantirishda ham muhim maydon bo'lib xizmat qilmoqda, - deydi DXX Chegara qo'shinlari Yoshlar ittifoqi yetakchisi kapitan Rasul Tojiboyev.



III darajali serjant Shahzod YODGUROV

kunida ishtirokchilar erta tongdan shijoat bilan harbiylashtirilgan estafeta shartlarini bajarishga kirishdi.

Dastlabki, azimut bo'yicha harakatlanish shartida ishtirokchilar kompas yordamida belgilangan nuqtalarni topganlaridan so'ng 25 metr masofadagi nishonga aniqlik bilan granata uloqtirdi. Shundan so'ng ular guruh tarkibida zaharlangan hududdan, to'siqlar yo'lagi va sim to'siq ostidan o'tish, yaralanganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, o'q-dorilarni belgilangan hududga tezkorlik bilan yetkazib berish hamda kompyuterli otish trenajyorida o'q otish kabi shartlar bo'yicha ham o'zaro bellashdi.

Ta'kidlash kerakki, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda bajarilgan ushbu shartlar o'quvchi-yoshlarning egallagan ilk harbiy ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Musobaqa kundaligida yoshlarning madaniy hordig'iga ham alohida e'tibor qaratilib, ular uchun



Nihoyat uch kun davom etgan shiddatli bellashuvlar yakunlanib, taqdirlash marosimi boshlandi. Tadbir avvalida yoshlar e'tiboriga harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi



“Amir Temur” filmi namoyishi, DXX Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari hamda Zangiota tumani madaniyat uyi san'atkorlari ishtirokidagi konsert dasturlari namoyish etildi.

“Yoshlar alangasi” nomli madaniy tadbir esa barchaning xotirasida uzoq muddat muhrlanib qoladigan bo'ldi. Mazkur tadbir davomida yoshlar har bir viloyatning urf-odatini, madaniyatini o'zida aks ettiruvchi milliy liboslarda kuy-qo'shiq va raqslar, g'azallar-u she'rlar, badiiy parchalar aytib, o'z iste'dodlarini namoyish etdi. Shundan so'ng gulxan atrofida harbiy-

hamda sarhadlarimiz himoyachilari tomonidan xizmat hayvonlari ishtirokidagi ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Shundan so'ng musobaqani har jihatdan sifatli va mazmunli tashkil etishda yordam ko'rsatgan hamkor tashkilotlarga minnatdorlik bildirilgach, taqdirlash jarayonlari boshlandi. Dastlab, shartlarning har birida yuqori natija ko'rsatgan jamoalarning a'zolari yakka tartibda maxsus diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi. To'maris avlodlari sifatida yigitlar bilan bir safda turib o'zlarining shijoat-u matonatlarini

namoyon etgan 26 nafar ishtirokchi qiz sahna markaziga taklif etilib, alohida minnatdorlik bildirildi.

Musobaqaning eng hayajonli daqiqalariga navbat yetgach, jamoalar to'plagan ballari ketma-ketligida rag'batlantirildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 3-o'rinni Namangan viloyatidan kelgan “O'zbekim o'g'lonlari” jamoasi egallagan bo'lsa, faxrli 2-o'ringa Toshkent viloyatining “Vatanparvarlar” jamoasi munosib deb topildi.

“Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasining

2026-yilgi mavsumi respublika bosqichining mutlaq g'olibli Jizzax viloyatining “Qalqon” jamoasiga nasib etdi. G'oliblar maxsus diplom, kubok, medallar hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Bir so'z bilan aytganda, yuqori kayfiyat, do'stona muhit va cheksiz vatanparvarlik ruhida kechgan bellashuv kelajagimiz bunyodkorlari qalbida uzoq yillar muhrlanib qoladigan bo'ldi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
 DXX Chegara qo'shinlari

# Jadidlar va ma'rifat g'oyasi

Hozirgi kunda O'zbekistonda jadidlar merosini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Umumiy o'rta ta'lim va oliy harbiy ta'lim muassasalarida jadid adabiyoti hamda jadidlik tarixi o'qitilmoqda. Jadid ma'rifatparvarlari millat taraqqiyoti uchun ilm, ta'lim va kitobxonlikni eng muhim omil deb hisoblagan.

Mustaqillik yillarida jadidlarning nomi oqlanib, ularning boy ma'naviy merosi xalqqa qaytarildi. Bugungi kunda esa ularning kitobxonlik, ta'lim va ma'rifat haqidagi g'oyalari yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutmoqda. Jadid ma'rifatparvarlarining hozirgi kunda ham kitobxonlik haqidagi g'oyalari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Avvalo yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish orqali ularning intellektual salohiyati va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida an'anaviy kitoblar bilan bir qatorda elektron va audio kitoblardan ham unumli foydalanish maqsadida "Mutolaa" kabi elektron platformalar, "Yosh kitobxon" tanlovlari joriy etilgan bo'lib, ular orqali yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish ishlari davom etmoqda. Bundan tashqari ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan esa jadidlar asarlari tahlil qilinyapti. Ularning pedagogik qarashlari o'rganilib, kitobxonlik madaniyatiga oid g'oyalari targ'ib etilmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlari kitobxonlikni millat taraqqiyotining asosiy omili deb hisoblagan. Ular xalqning ilmi, ongli va zamonaviy bo'lishi uchun kitob o'qish va ta'lim olish juda muhim ekanini takidlagan. Ha, kitob insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, axloqiy tarbiya beradi va jamiyatni rivojlantiradi. Shuning uchun ham jadid bobolarimiz kitob mutolaasi inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi eng muhim omil sifatida baholab, xalq o'rtasida kitobxonlik



ekanini ta'kidlagan. Jadidlar xalqni kitob o'qishga qiziqtirish uchun gazeta va jurnallar tashkil etgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini nashr etgan. Bu nashrlar orqali aholiga ilm-fan, madaniyat va dunyo yangiliklari yetkazilgan. Munavvarqori Abdurashidxonov ta'lim tizimida kitobxonlikka alohida ahamiyat bergan. U yangi usuldagi maktablarda o'quvchilarning mustaqil mutolaa qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Abdurauf Fitrat esa o'z asarlarida ilmsiz millat taraqqiyot etmasligini ta'kidlab, yoshlarni kitob mutolaasiga chaqirgan. Jadid ma'rifatparvarlarining kitobxonlik haqidagi asosiy qarashlari quyidagilardan iborat:

1. Ilm va ma'rifat taraqqiyot asosi jadidlar xalqni qoloqlikdan chiqarish uchun, avvalo ilm va kitob kerak deb bilgan. Ular maktablar ochib, yangi usulda ta'lim berishga harakat qilgan.

2. "Kitob insonni tarbiyalaydi" – shu g'oya orqali ular kitobni faqat bilim manbasi emas, balki inson ma'naviyatini boyituvchi vosita sifatida ham ko'rganlar. Kitobxon inson madaniyatli va fikrli bo'ladi deb hisoblashgan.

3. Yoshlarni kitob o'qishga chaqirish orqali jadidlar yosh avlodning kelajagi kitob bilan bog'liq deb ta'kidlagan. Shu sababli gazeta, jurnal va darsliklar nashr etishga katta e'tibor bergan.

4. Milliy uyg'onishda kitobning o'rni beqiyos bo'lgan. Ular kitobxonlik orqali milliy ongni uyg'otish va xalqni birlashtirish mumkin deb hisoblagan. Shuning uchun milliy tilda asarlar yozish va tarjima qilish ishlarini rivojlantirgan.

Jadidlar merosi milliy ma'naviyatimizning muhim qismi bo'lib, ularning asarlari va g'oyalari yosh avlodni vatanparvarlik, ma'rifat va taraqqiyot ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jadid ma'rifatparvarlari xalqning ma'naviy va madaniy taraqqiyotida beqiyos o'rin tutgan. Ular kitobxonlikni jamiyat taraqqiyotining asosiy vositasi sifatida ko'rgan va xalqni ilm-fanga chorlash orqali milliy uyg'onishga hissa qo'shgan. Bugungi kunda ham jadidlarning kitobxonlik haqidagi g'oyalari yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

madaniyatini shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Ular "Usuli jadid" maktablarini yaratdi. Ularning maqsadi, taraqqiyotning asosiy yo'li – ilm va kitob orqali jamiyatni rivojlantirish edi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining maqola va pyesalarida xalqni ilm olishga chaqirgan. U "Padarkush" asari orqali jaholat va bilimsizlikning salbiy oqibatlarini ko'rsatib bergan. Abdulla Avloniy esa "Turkiston guliston yoxud axloq" asarida kitob va ilm inson kamoloti uchun muhim

**A. KURBANOVA,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa**  
**universiteti Harbiy aviatsiya**  
**instituti dotsenti**

# KITOB VA QUROL



Kitobxonlik jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Shu bois davlat rahbarining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindiki, bular yurtimizda kitob targ'iboti va kitobxonlikni keng ko'lamda yoymoqda.

Davlat rahbarining 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari o'rtasida kitobxonlikni keng ommalashtirish, ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, faol harbiy kitobxonlar safini kengaytirish hamda munosib rag'batlantirib borish tizimini yo'lga qo'yishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida joriy yil mudofaa vazirining "Mudofaa vazirligi qo'shinlarida kitobxonlik madaniyatini keng rivojlantirish va shaxsiy tarkibning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i ishlab chiqildi. Ushbu buyruqda harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va harbiy akademik litsey o'quvchilari uchun "Kitob o'qish soati" belgilandi hamda o'qish uchun tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati shakllantirildi.

Unga ko'ra, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida har oyning ikkinchi chorshanba va yakshanba kunlari harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarini kitob mutolaasiga keng jalb etilmoqda. **Shaxsiy tarkib uchun tavsiya etilgan adabiyotlar uch toifadagi alohida ro'yxatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, ular:**

- harbiy tafakkur, strategiya, liderlik va qat'iyatni rivojlantiruvchi;
- milliy qadriyatlar, tarix va ma'naviyatni chuqur anglashga yordam beruvchi o'zbek adabiyoti;
- global fikrlashni kengaytirib, turli madaniyatlar bilan tanishtiruvchi jahon adabiyoti namunalari iboratdir.

Harbiy qism va muassasalarda kitob mutolaasi individual va jamoaviy tartibda, muhokama va davra suhbatlari, ma'ruzalar, taqdimotlar hamda yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar ko'rinishida tashkil etilmoqda. Harbiy xizmatchilarga qulaylik yaratish maqsadida Telegramda @mudofaakitob kanali yaratilgan bo'lib, u yerda barcha turdagi kitoblarni elektron shaklda topish mumkin.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalaridagi kutubxonalar faoliyati tizimli ravishda rivojlantirilib, kitob fondlari boyitilmoqda. Harbiy xizmatchilarning talab va istaklari, mutaxassisliklaridan kelib chiqib, yangi ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar, badiiy asarlar yetkazib berilmoqda. **Xususan:**

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kutubxonasi **40 000 dan** ziyod;

Nukusdagi harbiy qism kutubxonasi **15 000**;

Toshkentdagi harbiy qism kutubxonasi **14 000**;

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi kutubxonasi **11 000 dan** ortiq kitob fondiga ega.

Bu raqamlar zahirida minglab ajdodlar o'giti, yuzlab sarkardalar tajribasi va allomalarimizning ilmiy merosi mujassam. Zamon bilan hamnafas bo'lish maqsadida harbiy kutubxonalar Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tizimiga integratsiya qilingan. **Bu harbiy xizmatchilar uchun quyidagi elektron resurs portallaridan foydalanish imkonini berayotir:**

diss.natlib.uz – 25 000 dan ortiq ilmiy ishlar bazasi;

media.natlib.uz – 600 dan ortiq audiokitob va 158 ta video material;

press.natlib.uz – 1935–2024-yillarga oid 64 nomdagi 55 366 ta gazeta va jurnal;

nodir.natlib.uz – 2 276 ta nodir kitob va 122 ta qo'lyozma;

qr.natlib.uz – 400 dan ortiq kitoblarni QR-kod orqali yuklab olish imkoniyati.

Inson tafakkuri shunday kengki, uni faqat jismoniy mashqlar yoki temir intizom bilan to'ldirib bo'lmaydi. Ayniqsa, Vatan himoyachisi uchun ma'naviyat unga jang maydonida iroda, to'g'ri tanlov va sadoqatni taqdim qiladigan, beqiyos kuch baxsh etadigan asl manbadir. Shu bois harbiy qism va muassasalarda kitobxonlikni targ'ib qilish orqali shaxsiy tarkibning ma'naviy dunyoqarashi kengaymoqda, intellektual salohiyati oshib, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat tuyg'usi mustahkamlanmoqda. Tarixiy, harbiy-vatanparvarlik va ma'rifiy asarlarni mutolaa qilish yosh harbiy xizmatchilarda yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirmoqda.

**Harbiy qismlarda "Kitobxon askar", "Eng faol kitobxon", "Bir oy – bir kitob", "Eng yaxshi kutubxonachi" kabi tanlov va aksiyalar muntazam o'tkazib kelinmoqda.** Shuningdek, kutubxonalarda kitob taqdimotlari va kitobga bo'lgan ehtiyojni aniqlovchi

so'rovnomalar o'tkazilmoqda. Bunday chora-tadbirlar harbiylarning bilimini oshirish bilan birga, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qilayotir.

Xulosa qilib aytganda, bugun o'zbek askarining qo'lida Vatan mustaqilligi va tinchligini himoya qiluvchi zamonaviy qurol bilan birga uning ma'naviy dunyosini boyituvchi kitob ham bor. Zero kitob va qurol birlashgan joyda ham bilim, ham qudrat bo'ladi.

Harbiy qismlarda kitobxonlikning keng yo'lga qo'yilishi yuksak intellektual salohiyatga ega, ajdodlar merosidan kuch oladigan va dunyo voqealarini, jahondagi harbiy siyosiy vaziyatni teran tahlil qila oladigan yangi avlod himoyachilarini tarbiyalash demakdir. Kitob va qurolning bunday uyg'unligi mamlakatimiz mudofaa qudrati ham temir intizom va texnikaga, ham mustahkam bilim va yuksak ma'naviyatga asoslanishining yorqin ifodasidir.

Kitob o'qigan Vatan himoyachisi har qanday vaziyatda eng to'g'ri qarorni qabul qiladigan, yurt taqdirini o'z taqdiri deb biladigan haqiqiy jasorat sohibi bo'lib qolaveradi.

**Murodjon RO'ZIBOYEV,**  
Mudofaa vazirligi  
Ma'naviyat va madaniyat  
departamenti  
yetakchi mutaxassisi.  
**Furqat ERGASHYEV,**  
"Vatanparvar"

## Birinchi Sharq Renessansi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

## Abu Rayhon Beruniy –

# “TASHQARIDA” YASHOVCHI

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida Sharq ilm-fani va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa IX–XI asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuz bergan Birinchi Sharq Renessansi insoniyat tafakkuri taraqqiyotida ulkan burilish yasadi. Bu davrda ilm-fanning turli sohalarida betakror kashfiyotlar yaratgan buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi. Ana shunday qomusiy allomalardan biri Abu Rayhon Beruniydir.

Beruniy nafaqat Sharq, balki butun jahon ilm-fani tarixida ulkan o'ringa ega bo'lgan ensiklopedik olim sifatida tan olingan. U astronomiya, geografiya, matematika, mineralogiya, fizika, tarix, etnografiya va falsafa sohalarida yirik ilmiy asarlar yaratgan. Olimning ilmiy merosi hozirgi zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Kat shahri yaqinida 973-yilda dunyoga kelgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy yoshligidan ilmga chanqoq va o'ta zukko bola bo'lgan. Uning Beruniy deb atalishi “tashqarida yashovchi” ma'nosini anglatadi.

Beruniy dastlab Xorazmda ta'lim oldi va o'sha davrning mashhur olimlari qo'lida ilm sirlarini o'rgandi. U arab, fors, sug'd, yunon va sanskrit tillarini mukammal bilgan. Bu esa unga turli xalqlarning ilmiy merosini chuqur o'rganish imkonini bergan.

Olim yoshligidan astronomiya va matematikaga katta qiziqish bildirgan. U juda erta ilmiy kuzatishlar olib borib, Yerning harakati, osmon jismlari va geografik masofalarni hisoblash borasida tadqiqotlar boshlagan.

Beruniyning hayoti Xorazm, Gurganj va G'azna shaharlari bilan bog'liq kechgan. Ayniqsa, Mahmud G'aznaviy saroyida faoliyat yuritgan davrida olim keng ko'lamlil ilmiy ishlar bilan shug'ullangan.

Birinchi Sharq Renessansi davrining eng muhim xususiyatlaridan biri ilm-fanning yuqori darajada rivojlangani, inson aqli va tafakkuriga katta e'tibor qaratilganidir. Bu davrda Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi allomalar bilan bir qatorda Beruniy ham ilm-fan osmonida yorqin yulduz bo'lib porladi.

Beruniyning eng muhim jihati – uning ilmiy tadqiqotlarda aniq hisob-kitob va tajribaga tayanishi edi. U tabiat hodisalarini diniy yoki afsonaviy tushunchalar bilan emas, balki ilmiy dalillar asosida izohlashga harakat qildi. Bu esa uni zamonaviy ilm metodologiyasiga yaqinlashtirgan.

Beruniy astronomiya sohasida juda katta ishlar qilgan olimlardan biri hisoblanadi. U Yerning shakli sharsimon ekanini ilmiy asosda isbotlashga harakat qildi. Olim hatto Yer radiusini hisoblab chiqqan va uning natijalari

zamonaviy hisob-kitoblarga juda yaqin bo'lgan.

U Quyosh va Oy tutilishi, sayyoralar harakati, vaqt hisoblari va geografik koordinatalar haqida muhim ma'lumotlar bergan.

Beruniyning geodeziya sohasidagi ishlari ham juda ahamiyatlidir.

Olimning Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asari tarix, astronomiya va kalendar tizimlari haqida muhim manba hisoblanadi. Unda turli xalqlarning urf-odatlarini, bayramlari va vaqt hisoblash tizimlari tahlil qilingan.

Beruniyning eng mashhur asarlaridan biri “Hindiston”dir. Bu asar olimning Hindistonga qilgan safarlari va kuzatishlari asosida yaratilgan. Asarda hind xalqining tarixi, dini, urf-odatlarini, falsafasi, geografiyasi va ilmiy qarashlari haqida keng ma'lumot berilgan.

Eng muhimi, Beruniy boshqa xalq madaniyatiga hurmat bilan yondashgan. U hind xalqini kamsitmasdan, xolisona tahlil qilgan. Bu esa olimning bag'rikengligi va haqqoniy ilmiy pozitsiyasini ko'rsatadi. Beruniy etnografiya va qiyosiy madaniyathunoslik sohasining dastlabki asoschilaridan biri sifatida ham e'tirof etiladi.

Beruniy mineralogiya sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirgan. U turli ma'danlar va qimmatbaho toshlarning xususiyatlarini o'rgangan, ularning og'irligi va tarkibini tahlil qilgan. Olimning Mineralogiya asari bu sohadagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda minerallarning fizik xususiyatlari, tabiatda uchrashi va amaliy ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy tajriba va kuzatishga katta ahamiyat bergani uchun uni ayrim olimlar “eksperimental ilm asoschilaridan biri” deb ham baholaydi.

Beruniyning ilmiy faoliyatidagi eng muhim jihatlaridan biri – obyektivlik va haqiqatga intilish. U har qanday ma'lumotni tekshirish, taqqoslash va kuzatish orqali xulosa chiqargan. Bu jihatlar zamonaviy ilm-fanning asosiy tamoyillari bilan uyg'un hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi nafaqat Sharq, balki Yevropa ilm-fani taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Uning astronomiya, geografiya va matematikaga oid ishlari keyingi asrlarda ko'plab olimlar uchun muhim manba vazifasini o'tagan.

Bugungi kunda Beruniy nomi bilan ilmiy markazlar, universitetlar, ko'chalar va xalqaro mukofotlar ataladi. Bu esa olimning insoniyat oldidagi xizmatlari qanchalik yuksak ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi globallashuv va tezkor taraqqiyot davrida Beruniy merosi yosh avlod uchun ulkan ma'naviy va ilmiy maktab vazifasini bajaradi. Uning ilmga xolisona yondashuvi, tajribaga tayanishi va boshqa xalqlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bugun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, ilm-fanda aniqlik, tahlil va haqiqatga intilish kabi fazilatlar Beruniy faoliyatining asosiy mezonini bo'lgan. Bu jihatlar zamonaviy tadqiqotchilar uchun ham muhim namuna hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy Birinchi Sharq Renessansining eng buyuk namoyandalaridan biri sifatida jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning hayoti ilmga sadoqat, izlanish va haqiqatni anglashga bo'lgan yuksak intilish namunasidir.

Olimning boy ilmiy merosi insoniyat ma'naviy xazinasining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asarlari va g'oyalari bugun ham ilm ahlini tafakkurga, izlanishga va yangi kashfiyotlar qilishga undab kelmoqda.

**Internet materiallari asosida  
Sherzod SHARIPOV tayyorladi.**

Kasbim – faxrim

# VATAN OLDIDAGI sadoqat

Vatanparvarlik tuyg'usi inson qalbida bir kunda paydo bo'lmaydi. U avvalo, insonning o'z tarixi, millatining kechmishi, ajdodlarining jasorati va ma'naviy merosi bilan tanishishi orqali shakllanadi. Tarixni anglagan inson o'zligini angelaydi. O'zligini anglagan inson esa Vatan qadrini teran his qiladi.

Xalqimiz tarixi betakror jasorat va buyuklik sahifalariga boy. Amir Temurning davlatchilik borasidagi ulkan merosi, Jaloliddin Manguberdining bosqinchilarga qarshi ko'rsatgan matonati, Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik va ma'rifatparvarlik fazilatlarini bugun ham yoshlar uchun hayot maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, Ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimiz qoldirgan ilmiy meros millatimiz tafakkurining naqadar yuksak bo'lganini namoyon etadi.

Vatanparvarlik shunchaki hissiyot emas, u o'z xalqining tarixini, madaniyatini va an'alarini chuqur anglashdan boshlanadi. Tarixiy

meros yoshlarda "Men kimning avlodiman?" degan savolga javob berish orqali milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Haqiqatan ham, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Ushbu ibrat maktabining saboqlari har bir oilada, birinchi navbatda, ota-onalar tomonidan farzandlariga bolaligidan singdirib borilishi kerak.

Bolalik inson hayotida eng ta'sirchan davr hisoblanadi. Men ham bolaligimda tengdoshlarim bilan ko'chada harbiy o'yinlar o'ynagan kunlarimni haligacha unutmagan yo'q. Ikki jamoaga bo'linganimizda deyarli hech kim "dushman" tomonda bo'lishni istamasdi. Har birimiz o'zimizni Amir Temur yoki Jaloliddin Manguberdidek jasur sarkarda sifatida tasavvur qilardik. Darsliklarda o'qiganimiz, filmlarda ko'rganimiz, kattalardan eshitganimiz qalbimizda qahramonlikka havasni uyg'otgandi.

Orzular vaqt o'tib, maqsadga aylandi. Ana shu bolalikdagi qiziqishlar meni harbiy kasbni tanlashga undadi. Keyinchalik milliy tariximiz, ajdodlarimiz hayoti va ularning Vatan oldidagi xizmatlarini yanada chuqurroq

o'rganishga kirishdim. Bugun tarbiyaviy va mafkuraviy sohada xizmat qilar ekanman, bir haqiqatni yanada chuqur angelayman: tarixiy merosni o'rganish – bu faqat bilim emas, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyat.

Yurtimizda keyingi yillarda yoshlarni tarixiy meros bilan tanishtirishga qaratilgan ishlar yanada kuchaymoqda. Muzeylar, tarixiy qadamjolar, me'moriy obidalar, qo'lyozmalar va osori atiqalar bilan yaqindan tanishish yoshlarda o'tmishga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg'usini kuchaytirmoqda. Jumladan, Toshkent harbiy okrugi tomonidan maktab va oliy ta'lim muassasalari yoshlari uchun tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy sayohatlar bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy eksponatlarni kitob sahifasida emas, balki bevosita ko'rish, ajdodlar iz qoldirgan qadamjolarida bo'lish yoshlar

qalbida o'zgacha hissiyot uyg'otadi. Bu hissiyot esa asta-sekin milliy g'ururga, milliy g'urur esa Vatan oldidagi sadoqatga aylanadi.

Bugun har birimiz o'zimizga bir savol berishimiz kerak: biz kelajak avlodga qanday ma'naviy meros qoldiryapmiz? Chunki tarixni anglagan millatgina o'z kelajagini mustahkam qura oladi. Vatanga muhabbat esa aynan tarixni anglashdan boshlanadi.

**Podpolkovnik  
Anvar QULMURODOV,  
Toshkent harbiy okrugi  
katta ofitseri**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Ta'lim



## ENG KUCHLI QUROL — bu bilim

Bugungi globallashuv davrida xavfsizlik tushunchasi tobora kengayib, yangi mazmun kasb etmoqda. Endilikda urushlar faqat an'anaviy jang maydonlarida emas, balki axborot makonida, kiberhududda va yuqori texnologiyalar orqali ham olib borilmoqda. Bu esa harbiy sohada ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yimoqda.

Zamonaviy harbiy mutaxassisni tayyorlash – bu nafaqat bugungi kun, balki ertangi kun xavfsizligini ta'minlash demak. Bir necha soniya ichida qabul qilingan qaror butun bir jang taqdirini hal qilishi mumkin. Shu

bois zamonaviy harbiy mutaxassis – oddiy askar emas, balki murakkab tizimlarni boshqara oladigan, axborot oqimini tahlil qiladigan va yuqori darajada mas'uliyatni his etadigan professional shaxs.

So'nggi yillardagi global mojarolar bu haqiqatni ochiq ko'rsatib berdi. Xususan, mintaqa va jarayonda yuz bergan qurolli to'qnashuvlarda oddiy va nisbatan arzon dronlar zamonaviy, qimmat harbiy texnikalarga qarshi samarali qo'llanildi. Bu esa jang maydonidagi ustunlik ko'p hollarda texnologiyani qay darajada o'zlashtirganlikka bog'liq ekanini isbotladi. Demak, zamonaviy jang maydoni allaqachon o'zgargan. Endi u nafaqat yerda yoki havoda, balki kiberhududda, axborot makonida ham davom etmoqda. Tahlillarga ko'ra, dunyo miqyosida harbiy xarajatlarning sezilarli qismi aynan yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Bu esa harbiy ta'lim tizimidan mutlaqo yangi yondashuvni talab etadi.

Bugungi harbiy ta'limning ustuvor vazifasi – har tomonlama yetuk, zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash. Bunday mutaxassis chuqur nazariy bilimga ega bo'lishi bilan birga, amaliy ko'nikmalarni ham mukammal egallagan bo'lishi zarur. U axborot texnologiyalarini tushunadi, zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanadi va zarur vaziyatlarda tezkor hamda aniq qaror qabul qila oladi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt va uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ishlash ko'nikmalari bugungi harbiy mutaxassis uchun asosiy talabga aylanmoqda.

Endilikda jang maydonida ustunlik ko'pincha kuchda emas, balki bilim va texnologik ustunlikda namoyon

bo'lmoqda. Shu sababli rivojlangan davlatlar harbiy ta'limda innovatsion yondashuvlarga, simulyatsion mashg'ulotlarga va real vaziyatlarga yaqin mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratmoqda. Biroq texnologik bilimlarning o'zi yetarli emas. Harbiy mutaxassis jismonan chiniquqan, intizomli va bardoshli bo'lishi shart. Shu bilan birga, ruhiy barqarorlik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Stressli vaziyatlarda sovuqqonlikni saqlash, bosim ostida to'g'ri qaror qabul qilish va jamoa bilan samarali ishlash zamonaviy harbiy xizmatchining ajralmas fazilatlaridir.

Harbiy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya ham markaziy o'rinda turadi. Vatanparvarlik, fidoyilik va yuksak mas'uliyat hissi harbiy kasbning poydevorini tashkil etadi. Chunki harbiy xizmatchi nafaqat buyruq bajaruvchi, balki davlat mustaqilligi va xalq tinchligining himoyachisidir. Bugungi kun yana bir muhim savolni kun tartibiga olib chiqmoqda: harbiy ta'lim tizimi zamon bilan bir xil tezlikda rivojlanyaptimi? Agar bu jarayon ortda qolsa, uning oqibatlari xavfsizlik sohasida sezilishi mumkin. Chunki kelajakdagi tahdidlarga kechagi bilimlar bilan javob berib bo'lmaydi.

**Dilshod OCHILOV,  
Harbiy xavfsizlik va  
mudofaa universiteti  
Harbiy aviatsiya instituti  
kafedra mudiri, t.f. bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent**

Qahramonlar nomi barhayot



Yurt tinchligi yo'lida jonini fido qilgan, mardlik va jasorat timsoliga aylangan qahramon o'g'lonlarning xizmatlari xalqimiz qalbida mangu yashaydi. Ayniqsa, 2000-yili yuz bergan Sariosiyo voqealari vaqtida Vatan himoyasi yo'lida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasi bugun ham chuqur ehtirom bilan yodga olinmoqda.

# JASORAT

## HECH QACHON UNUTILMAYDI

Ana shu ezgu maqsad yo'lida Samarqand shahri, shuningdek Nurobod, Bulung'ur va Kattaqo'rg'on hududlarida "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari yuqori saviyada tashkil etildi. Ushbu tadbirlar nafaqat qahramonlar xotirasini yod etish, balki yosh avlod qalbida

qilgan Sayyor Sadinovning hayot yo'li bugungi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir.

Tadbir davomida o'quvchilar tomonidan jasorat va fidoyilikni madh etuvchi she'rilar o'qildi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Nurobod tumani Oqsoy qishlog'idagi 13-umumta'lim maktabida

buyurib, tashkil etilgan uy muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Muzeyda qahramonning harbiy kiyimlari, xizmat davomida olgan mukofotlari, suratlari va esdalik buyumlari jamlangan bo'lib, ular yoshlar qalbida chuqur faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otdi. Ayniqsa, otanalarning farzandi bilan faxrlanib aytgan so'zlari yig'ilganlarni befarq qoldirmadi.

Bulung'ur tumanidagi 18-umumta'lim maktabida katta serjant Ma'rufjon Rajabov xotirasiga bag'ishlangan harbiy-vatanparvarlik tadbiri ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

etildi. Tadbirda marhum harbiy xizmatchining jasorati, matonati va Vatan ravnaqi yo'lidagi xizmatlari eslandi. So'zga chiqqanlar xalqimiz o'z qahramonlarini hech qachon unutmasligini, ular nomi xalq qalbida mangu yashashini alohida ta'kidladi.

Tadbirlar avvalida maktab hududida o'rnatilgan byustlar poyiga gulchambarlar qo'yildi. Qahramon xotirasiga hurmat bajo keltirilib, uning yorqin xotirasi oldida ta'zim qilindi. Bu jarayonlar yoshlar qalbida chuqur hayajon uyg'otib, Vatan himoyachilariga bo'lgan hurmatni yanada oshirdi.



Vatanga muhabbat, milliy g'urur va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilgani bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Tadbirlar Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamkorligida tashkil etildi. Tadbirlar davomida Vatan himoyasi yo'lida jonini fido qilgan qahramonlarning porloq xotirasi chuqur ehtirom bilan yodga olindi. Xususan, Samarqand shahridagi 9-umumta'lim maktabida Vatan himoyasi yo'lida mardlarcha halok bo'lgan leytenant Sayyor Sadinov xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda so'z olganlar qahramonning jasorati, Vatanga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi haqida so'z yuritdi. Ta'kidlanganidek, Vatan tinchligi uchun ko'ksini qalqon

katta leytenant Ismatullo Xodjayev xotirasiga bag'ishlangan uch avlod uchrashuvi ham yuksak saviyada tashkil etildi. Unda Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida samimiy muloqot tashkil etildi. Ayniqsa, yoshi ulug' nuroniyning tinchlikning qadriga yetish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish haqidagi fikrlari o'g'il-qizlarda katta taassurot uyg'otdi.

So'zga chiqqanlar bugungi tinch va osoyishta hayot yurt himoyachilarining mardonavor xizmatlari evaziga barpo etilganini alohida ta'kidladi. Zero harbiylik kasbi nafaqat sharaflar, balki ulkan mas'uliyat hamdir. Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi xalq tinchligi va davlat mustaqilligining ishonchli qalqoni hisoblanadi.

Tadbirdan so'ng ishtirokchilar marhumning xonadoniga tashrif

Tadbir davomida qahramonning xizmat faoliyati, farzandlik burchiga sadoqati, jangovar vazifalarni bajarishdagi jasorati haqida so'z yuritildi.

Yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotlarda bugungi kunda Qurolli Kuchlarda yaratilayotgan sharoitlar, harbiy sohaga oid imkoniyatlar haqida ham batafsil ma'lumotlar berildi. Bu esa ko'plab o'quvchilarning harbiy kasbga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Kattaqo'rg'on shahridagi 16-umumta'lim maktabida kichik serjant Ulug'bek Barnoyev xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham alohida ruhda tashkil

Shuningdek mazkur tadbirlar davomida Mudofaa vazirligi tizimida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hayoti va jasoratiga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" nomli kitob-albomning taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Tadbir yakunida kitob-albomlar marhumlar tahsil olgan umumta'lim maktablari kutubxonalariga topshirildi.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati  
bosh mutaxassisi



## Muzey – o'tmish va kelajakni BOG'LOVCHI ZANJIR

Ba'zan tarix baland ovozda gapirmaydi. U jim turadi. Ammo ana shu sukunatni qalb bilan tinglay olgan inson uchun aynan shu sokinlik eng kuchli saboq, eng ta'sirli haqiqatga aylanadi. Chunki tarix – bu faqat sanalar yoki voqealar ketma-ketligi emas, balki millatning xotirasi, jasorati va ruhiy qudrati ham.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Qurolli Kuchlar Bosh shtabi fakulteti, Qo'shinlarning operativ-taktik shtab qo'mondonligi (*chegara qo'shinlari*) tinglovchilari va bir guruh harbiy xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarixi davlat muzeyiga tashrifi ana shunday ma'naviy ahamiyatga ega tadbirlardan biri bo'ldi.

Bu oddiy madaniy sayohat emas edi. U – harbiy kasbning mazmun-mohiyatini yana bir bor his etish, millat tarixi bilan yuzma-yuz muloqot qilish, Vatan himoyasi degan muqaddas burchning ildizlarini anglashga xizmat qilgan ma'rifiy va tarbiyaviy safar bo'ldi. Muzey ostonasidan kirgan har bir harbiy xizmatchi nafaqat eksponatlarni ko'rdi, balki o'tmish bilan ma'naviy suhbat qurdi, tarixning jim, ammo ta'sirli ovozi his qildi.

Muzey zallarida vaqt go'yo turli davrlarga bo'linib ketganday tuyuladi. Bir zalda – qadimiy davlatchilik va jangovar an'analarning nafasi, boshqa bir zalda – milliy armiyamizning bugungi qudrati va salohiyati aks etadi. Ekspozitsiyalar O'zbekiston hududida harbiy san'atning shakllanishi, qo'shiqchilik an'analari, yurtimizda davlat va armiya munosabatlarining taraqqiyoti haqida izchil va ta'sirchan hikoya qiladi.

Har bir eksponat – bir tarix. Har bir surat yoki hujjat ortida inson taqdiri, jasorat, yo'qotish va g'alaba mujassam. Ayrim eksponatlarga nazar tashlarkansiz, vaqt go'yo bir lahzaga to'xtab qolgandek bo'ladi. Qadimiy qilichlar, jangovar anjomlar, harbiy liboslar va tarixiy hujjatlar orqali ajdodlarimiz jasoratini nafaqat ko'rdik, balki qalban his etdik ham.

Ayniqsa, buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy faoliyati va davlat boshqaruviga bag'ishlangan bo'lim tashrif ishtirokchilarida chuqur taassurot qoldirdi. Bu yerda Temuriylar davri harbiy san'atining yuksak darajasi, qo'shinlarni boshqarishdagi aniq tizim, intizom va strategik tafakkur namoyon bo'ladi. Ekspozitsiyalardan joy olgan jangovar yurish xaritalari, qo'shinlar saflanishi va boshqaruv tamoyillari harbiy xizmatchilarni asl haqiqat haqida yana bir bor o'ylashga undaydi: g'alaba tasodif emas, u bilim, tajriba, intizom va mustahkam iroda mahsulidir.

Bu bo'limda go'yo Amir Temurning o'zi har bir harbiyga murojaat qilayotgandek: "Qudrat – tartib va aql bilan yuksaladi". Shu bois tashrif ishtirokchilari bu ekspozitsiyani katta qiziqish va ehtirom bilan tomosha qilishdi.

Muzeyning Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan qismi esa tashrif qatnashchilarini chuqur his-tuyg'ular

og'ushiga olib kirdi. Bu zaldagi har bir surat – bir umr qismati, har bir maktub – orzular va sog'inchlar izi, har bir orden yoki medal esa qon va jasorat ramzidek namoyon bo'ladi. Urush yillarida O'zbekiston xalqining front va front ortida ko'rsatgan fidoyiligi, millionlab insonlarning mehnati va matonati ekspozitsiyalarda ta'sirchan tarzda aks etgan.

Ayniqsa, frontdan yuborilgan xatlar, harbiy kiyimlar va qurol-aslahalarni ko'rgan kishining ko'z oldida o'sha davrning og'ir manzarasi gavdalanadi. Bu yerda tarix kitob sahifasidagi ma'lumot emas, balki inson yuragi orqali o'tadigan tirik haqiqatga aylanadi.

Mustaqillik yillariga bag'ishlangan bo'lim esa bugungi O'zbekiston armiyasining taraqqiyoti va salohiyati haqida hikoya qiladi. Zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika namunalari, qo'shin turlari, jangovar tayyorgarlik tizimi va harbiy ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda milliy armiyani mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan dalolat beradi.

Bu zalda harbiy xizmatchilar nafaqat bugungi armiya qiyofasini ko'rishdi, balki o'z zimmlaridagi mas'uliyatni yanada chuqurroq angladilar. Chunki har bir harbiy – kechagi qahramonlar jasoratining davomchisi, ertangi tinchlikning ishonchli qalqoni.

– Muzey biz uchun shunchaki tarixiy ko'rgazma emas, balki katta ma'naviy maktab bo'ldi, – deydi podpolkovnik Alisher Tursunov. – Bu yerda biz harbiy kasbning naqadar sharafli va mas'uliyatli ekanini yanada chuqur anglaymiz. Ayniqsa, ajdodlarimizning jasorati va matonati bizga katta ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Muhimi, ushbu sayohat xizmatga bo'lgan munosabatimizni yanada mustahkamladi.

Darhaqiqat, muzey – bu o'tmishni saqlovchi joygina emas. U insonni o'ylashga, xotiradan kuch olishga va kelajak oldidagi burchni anglashga undaydigan ma'naviyat maskani. Ayniqsa, harbiy muzeylar vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish, harbiy kasbga sadoqatni mustahkamlash va milliy g'ururni yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Chunki Vatan himoyasi, avvalo, qalbdan boshlanadi. Tarixini bilgan, ajdodlar jasoratidan ruhlangan insongina yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi uchun sidqidildan xizmat qila oladi.

**Podpolkovnik Ilhom XALMIRZAYEV,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti**  
**Chegara qo'shinlari harbiy san'ati kafedrasini**  
**katta o'qituvchisi, dotsent**



Mulohaza

# VATANPARVAR YOSHLAR – YURT KELAJAGI

Bugun dunyo tobora beqarorlashayotgan, axborot urushlari avj olgan bir zamonda yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va milliy g'ururni uyg'otish masalasi har qachongidan ham dolzarbdir.

Buning uchun esa oddiy so'zlar, ma'ruza va darsliklarning o'zi yetarli emas. Yoshlar ko'zi bilan ko'rishi, qo'li bilan his qilishi, qalbi bilan o'zini Vatana himoyasiga bag'ishlashi kerak. Aynan mana shu vazifada harbiy-vatanparvarlik tadbirlarining o'rni beqiyos.

Shu o'rinda savol tug'iladi, nega aynan harbiy tadbirlar? Chunki ular yoshlarda "vatanparvarlik" tushunchasini jonli, amaliy va kuchli tuyg'uga aylantiradi. Maktabdagi birgina "Vatan himoyachilari kuni" yoki harbiy qismga tashrif, Qurolli Kuchlar faxriylari bilan uchrashuv, harbiy

sport o'yinlari, safda yurish mashqlari – bularning barchasi yoshlar yuragida o'chmas iz qoldiradi.

Bunday tadbirlarning kuchi – jonli misollarda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etib kelinayotgan "Vatanparvarlar", "Shunqorlar", "Harbiy ko'pkurash", "Jasorat uchqunlari" kabi harbiy-vatanparvarlik sport musobaqalarining o'tkazilishi, shuningdek Prezidentimiz tashabbuslari bilan har bir umumta'lim maktablarida tashkil qilingan "Vatan tayanchi" otryadlari,

urush faxriylari bilan uchrashuvlar kabi bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarining mavjudligi yoshlarda o'zini anglash imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, ushbu tadbirlar yoshlarni tartib intizom, mas'uliyat va hamjihatlik ruhida tarbiyalaydi. Safda turish, jamoa bilan birgalikda harakat qilish – bular o'smirmo tarqoq va loqaydlikdan xalos qiladi.

Qolaversa, harbiy muzeylarga ekskursiyalar, askarlarning kundalik hayoti bilan tanishish – bular yoshlar

qalbida qahramonlik hissini yanada oshiradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari yoshlarni ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk, Vatanga muhabbat va sadoqat bilan ulg'aytira oladigan avlod qilib tarbiyalashning eng samarali vositasidir.

**Fuzayl YUSUPOV,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya instituti o'qituvchisi**



Yordamchi xo'jaliklarda

## BARAKALI MEHNAT – farovonlik kafolati

Mudofaa vazirligida ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, o'z-o'zini ta'minlashni kuchaytirish masalasiga bugun alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero mustahkam ta'minot qudratli armiyaning ishonchli tayanchidir.

Shu ma'noda, Sharqiy harbiy okrug moddiy-texnik ta'minot bazasida tashkil etilgan yordamchi xo'jalik faoliyati e'tiborga molik namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur xo'jalikda

dehqonchilik, bog'dorchilik va asalarichilik yo'nalishlari izchil va rejali tarzda yo'lga qo'yilgan. Yerdan unumli foydalanish, har bir mavsumni samarali tashkil etish orqali turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, ichki ehtiyojni qondirishga xizmat qilmoqda.

Yordamchi xo'jalik hududida tashkil etilgan serhosil ekin maydonlarida sabzavot va poliz mahsulotlari parvarishlanayapti. Mehnatkashlar tomonidan har bir ko'chatga mehr bilan qaralayotgani hosil sifatidan yaqqol ko'rinib turibdi. Bog'dorchilik yo'nalishida esa mevali



daraxtlar parvarish qilinib, sifatli va serhosil mahsulot olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Asalarichilik sohasida ham izchil ishlar olib borilib, tabiiy va shifobaxsh asal mahsulotlari yetishtirilmoqda.

Ayniqsa, okrug hududidagi 6 ta frontorti ta'minoti bo'linmalarida joriy etilgan klaster tizimi o'z samarasini bermoqda. O'tgan yilning shu davriga nisbatan chorvachilik 122 foizga,

parrandachilik 100 foizga, baliqchilik 41 barobarga, issiqxona xo'jaligi 163 foizga, asalarichilik esa 131 foizga o'sgani bu boradagi sa'y-harakatlar samarasining yaqqol ifodasidir. Bu raqamlar ortida esa mehnat, intizom va oqilona boshqaruv mujassam.

Yetishtirilayotgan mahsulotlar belgilangan reja asosida harbiy qismlarga o'z vaqtida yetkazib berilayotgani tizimning barqaror ishlashida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat harbiylarni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki xarajatlarni qisqartirish, ichki zaxiralardan samarali

foydalanish imkonini ham yaratadi.

Shu tariqa yordamchi xo'jalikdagi barakali mehnat bu shunchaki hosil emas, balki tizimli yondashuv, mas'uliyat va Vatanga sadoqatning amaliy ifodasidir. Chunki har bir yetishtirilgan mahsulot ortida yurt himoyachilariga xizmat qilish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ezgu niyat mujassam.

**Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati**

Uchrashuv

## Ochiq muloqot



“Yoshlar kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq zangiotalik yosh bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Toshkent viloyatida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda o‘tkazilgan tadbirida yig‘ilganlarga “Vatanparvar” tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot berildi.

“Vatanparvar” tashkiloti respublikamizda haydovchilik kasbiga tayyorlovchi eng ko‘p o‘quv muassasalariga ega tuzilma hisoblanadi. Shuningdek, tashkilotda fuqarolar ushbu kasbdan tashqari, vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblariga



o‘qitilishi, shu bilan birga, yuk ortuvchi transport, avtogidropodyomnik, yuk mashinasi krani, g‘ildirakli traktor, bitta kovshli ekskavator texnikalarini boshqarish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanishi haqidagi ma‘lumot ko‘pchilikni befarq qoldirmadi.

“Hatto tashkilotimiz so‘nggi ikki-uch yilda migratsiya sohasida faollik ko‘rsata boshladi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi bilan tuzilgan memorandum asosida biz kasb-hunarga tayyorlagan ko‘plab hamyurtlarimiz xorijda o‘z ish o‘rinlarini topgan”, dedi tashkilot rahbari.

“Vatanparvar” tashkilotining yosh sportchilari nafaqat respublika, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani haqidagi ma‘lumot ham tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Rahbar va yoshlar uchrashuvi doirasida “Vatanparvar” tashkiloti rahbari Toshkent viloyati kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga yangi 20 ta “Chevrolet Onix”, 1 ta “KIA Sonet” yengil avtomobili va 6 ta “FOTON” yuk mashinasini topshirdi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “B” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.

“Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Biatlon”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel” va “Kemamodel” sport seksiyalarining ko‘rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Hamkorlik



## Xalqaro forumda ishtirok

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi hamda Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (IOM) hamkorligida “Mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish” mavzusida birinchi Toshkent xalqaro migratsiya forumi o‘tkazildi.

Toshkent shahrida o‘tkazilgan mazkur forumda Markaziy Osiyo, Yevropa, Osiyo mintaqalari va AQShdan kelgan 600 ga yaqin mutaxassis qatnashdi.

Tadbirida mehnat migratsiyasini tizimli va inson manfaatiga asoslangan tarzda tashkil etish, qonuniy migratsiya yo‘llarini kengaytirish, mehnat migrantlarining huquqini himoya qilish, ijtimoiy kafolatini kuchaytirish, kasb va til tayyorgarligini takomillashtirish yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Forumda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov “Vatanparvar” tashkilotida avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda kasb-hunarga o‘qitish” mavzusidagi ma‘ruzasida ishtirok etdi.

O‘z ma‘ruzasida tashkilot o‘quv muassasalarida haydovchilik hamda texnik xizmat ko‘rsatish va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislarini tayyorlash jarayonlari to‘g‘risida ma‘lumot berdi. Ayniqsa, tashkilot tomonidan migratsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumot yig‘ilganlarning qiziqishiga sabab bo‘ldi.

Jumladan, 2023-yilning sentabr oyida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi va Migratsiya agentligi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bo‘lib, ushbu memorandumning asosiy maqsadi xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan mamlakatimiz fuqarolarini shartnoma asosida xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida 2024-yildan hozirga qadar Germaniyaga 220, Litvaga 55, Latviyaga 28, Chexiyaga 25, Polshaga 31, Bolgariyaga 30, Vengriyaga 26 va Ruminiyaga 23 nafar fuqaro tashkilot o‘quv muassasalarida “BC”, “CE” va “D” toifalari bo‘yicha haydovchilik kasbiga o‘qitilib, Migratsiya agentligi orqali vaqtincha ishlash uchun yuborildi. Fransiyaning “Pejo” avtomobil zavodi buyurtmasiga ko‘ra, 300 nafar o‘zbekistonlik fuqaro yuk ortish transporti boshqaruvchisi mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlandi.

Yaponiyaning “Onodera User Run” va “Willer Group” kompaniyalari bilan Anglashuv memorandumi imzolani, ushbu yo‘nalishda hamkorlik qilish kelishib olindi. So‘nggi ikki yilda Latviya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Italiya, Sloveniya davlatlaridan hamkorlik taklifi bildirildi.

Husan Botirov ma‘ruzasidan so‘ng Shveysariya, Niderlandiya, Ruminiya, Germaniya, Yaponiya, Tojikiston davlatlarining bir qator yirik ish beruvchi kompaniyalari rahbarlari “Vatanparvar” tashkiloti bilan migratsiya sohasida hamkorlik o‘rnatish istagini bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Yurt tayanchi

## MUNOSIB SHAROIT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, har bir tuman va shahardagi umumta‘lim maktablari negizida bolalarni yoshligidan vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan “Jasorat maktabi” tashkil etilgan edi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida ayni paytda respublika bo‘yicha jami 208 ta maktab shunday harbiy yo‘nalishga ega ta‘lim muassasasi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda Toshkent shahridagi umumta‘lim maktablarining 12 tasida “Jasorat sinflari” tashkil etilgan bo‘lib, ular orasida Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 148-umumta‘lim maktabi ham bor.

Mazkur bilim maskanida “Jasorat sinfi” uchun alohida xona ajratilgan hamda kerakli barcha o‘quv qurollari va ko‘rgazmali jihozlar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, tuman hokimligi va tegishli idoralar hamkorligida o‘quvchilarning sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishlari uchun o‘q otish hamda sport maydonchalari ham yangidan qurib bitkazildi.

Ushbu dargohda yangi sport maydonchalari va o‘q otish hududining ramziy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda tuman hokimi, Mudofaa vazirligining mas‘ul ofitserlari, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimi vakillari, jamoatchilik faollari, ustozlar, ota-onalar hamda o‘quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Marosim avvalida Vatanga sadoqat, jasorat va fidoyilikni madh etuvchi she‘rlar o‘qildi, O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yangradi. Tadbir davomida so‘z olganlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash hamda kelajakda yetuk va fidoyi avlodni voyaga yetkazishda bunday maydonlarning ahamiyati katta ekanini ta‘kidladi.

Ushbu tashabbus yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi, harbiy sohaga qiziqishini oshirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Tadbir davomida o‘quvchilar tomonidan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi she‘r va qo‘shiqlar ijro etildi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar tomonidan ko‘rgazmali qo‘ljangi chiqishlari namoyish etildi.

Yakunda tadbir ishtirokchilari yangi sport maydonchasi va o‘q otish hududini ko‘zdan kechirib, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni yuksak baholadi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
“Vatanparvar”



## Salomatlik

“Chekish o‘ldiradi!” deb yozilgan ibora shunchaki sigareta qutilaridagi ogohlantirish emas, bu fibbiy haqiqatdir.

Katta yoshdagi aholining 30 foizdan ortig‘i har kuni chekadi. **Chekish inson tanasining deyarli barcha a‘zolariga ta‘sir qiladi:**

**Yurak-qantomir tizimi:** chekuvchilarda yurak xastalıklariga chalinish ehtimoli 2-4 barobar yuqori. Nikotin va smola yurak xuruji, qon aylanishining buzilishiga olib kelishi mumkin.


**Nafas olish tizimi:** o‘pka saratoni holatlarining 90 foizdan ortig‘i chekish bilan bog‘liq. Tutun o‘pkaga zarar yetkazadi, surunkali bronxit, o‘pka raki, sil, zotiljam va shu kabi boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Chekish og‘iz bo‘shlig‘i, qizilo‘ngach, siydik pufagi va hatto o‘t pufagi saratonini keltirib chiqaradi, teri holatining yomonlashishi, suyaklarning mo‘rtlashishiga olib keladi.

Tamakidan zaharlanish bilan insonning 25 dan ortiq kasalliklari o‘rtasidagi bevosita to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik isbotlangan.

Tamaki tutuni insonga zaharli ta‘sir qiluvchi 4 000 ga yaqin birikmalardan tarkib topgan bo‘lib, ular toksik va kanserogen ta‘sirga ega. Tamaki tutunidagi nikotin qaramlikni keltirib chiqaradi. **“Yengil” yoki “Zararsiz” sigaretalar mavjud emas!**

## CHEKISHNING XAVFSIZ SHAKLLARI YO‘Q



Xavfsiz sigaretalar yoki xavfsiz chekish darajasi yo‘q. Tamaki mahsulotlari tarkibidagi nikotin va smola miqdoriga ko‘ra farqlanadi. Ammo ularning barchasi inson tanasiga zararli ta‘sir ko‘rsatishi isbotlangan. Chekishning tarqalishi hozirgi holatda barqaror bo‘lib qolsa ham, kelgusi 50 yil ichida dunyo bo‘ylab taxminan 450 million kishining hayotiga zomin bo‘ladi. Agar chekuvchilar umumiy sonini ikki baravar kamaytirishning iloji bo‘lsa, joriy asrning birinchi yarmida 170–180 million erta o‘limning oldi olingan bo‘ladi.

**Elektron sigaretalar (veyp) va uning zarari.** Elektron sigareta,

bug‘lashtirgich yoki veyp – bu tamaki o‘rniga maxsus suyuqlik bilan to‘ldirilgan patronlardan foydalanadigan chekish moslamasi. U nozik dispersli aerosol ishlab chiqarishni boshlaydigan tugmani bosish orqali faollashtiriladi. Chekish paytida suyuqlik qiziydi va chekuvchi bug‘ bilan nafas oladi.

Kanserogen moddalarni o‘z ichiga olgan ushbu bug‘ organizm uchun juda xavflidir. Zaharli moddalar astma, pnevmoniya va yurak-qantomir kasalliklarini kuchaytiradi. Oddiy sigaretani chekishdan farqli, elektron sigaretalardan foydalanganda, inson tutun bilan emas bug‘ bilan nafas oladi. Bug‘dagi moddalarning bir

qismi o‘pkaga kiradi, qolganlari esa atrof-muhitga chiqariladi. Ishlab chiqaruvchilar ko‘pincha tabiiy nikotinni kimyoviy moddalar bilan almashtirgani bois uzoq muddatli iste‘mol natijasida veypning xushbo‘y sigaretalari hujayra darajasida o‘pkaning zararlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa oddiy sigaretalardan ko‘ra ko‘proq xavf tug‘diradi.

**Veyp xavflimi yoki sigaretalar?**

Chekishning xavfsiz shakllari yo‘q! An‘anaviy sigaretalar ham, elektron sigaretalar ham zararlidir! Veyping ham, chekish ham noxush oqibatlariga olib keladi: o‘pkaning ifloslanishi, qantomirlarining torayishi natijasida markaziy asab tizimi va o‘pka bilan bog‘liq muammolar kelib chiqadi.

Ko‘p chekuvchilar oddiy sigareta chekishni tashlash uchun veypingga o‘tgan. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki, ular bir yildan keyin ham chekishni davom ettirgan. Bu elektron sigaretaga bo‘lgan qaramlikning faqatgina nikotinga bo‘lgan qaramlikni oshirishini isbotlaydi.

Chekishni tashlash bu shunchaki odat emas, bu o‘zingizga bo‘lgan cheksiz muhabbat izhoridir. Hayotni tanlang, ozodlikni tanlang, zero umringiz va sog‘lom hayotingizning yagona muallifi o‘zingiz!

**N. BURANKULOVA,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti ilmiy tadqiqot markazi**

## Ogohlilik



Yoz faslining issiq kunlarida daryo, kanal va ko‘llar atrofida odamlar gavjum bo‘ladi. Kimdir dam olyapti, kimdir salqinlash uchun suvga sho‘ng‘iyapti. Ammo aynan shu lahzalarda ko‘pchilik e‘tibor bermaydigan bir yashirin xavf paydo bo‘lishi mumkin – ya‘ni cho‘kish. Bu sukunatda yuz beradigan fojia. U baqirish, yordam so‘rash bilan emas, balki bir necha daqiqa ichida, ko‘pincha sezilmay sodir bo‘ladi.

### CHO‘KISH – QANDAY SODIR BO‘LADI?

Ko‘pchilik o‘ylaydiki, cho‘kayotgan odam baqiradi, qo‘l siltaydi. Aslida esa bu holat har doim ham kuzatilmaydi. Cho‘kish paytida inson nafas olishga urinadi, og‘iz va burun suvga to‘ladi, gapirishga ham ulgurmaydi. Natijada hayot uchun hal qiluvchi 3-5 daqiqa ichida miya kislorodsiz qoladi.

**Qo‘rqinchli raqamlar:** har yili dunyoda 200 mingdan ortiq odam suvga cho‘kib halok bo‘lar ekan. Eng ko‘p qurbonlar – yoshlar. Erkaklar ayollarga nisbatan 2-3 barobar ko‘proq cho‘kadi. Hodisalarning katta qismi oddiy kanal, ariq

## Nima uchun odamlar cho‘kadi?

va daryolarda yuz beradi. Eng alamlisi – bu holatlarning ko‘pini oldini olish mumkin.

### NIMA UCHUN ODAMLAR CHO‘KADI?

Sabablari oddiy, lekin jiddiy: suzishni bilmaslik, bolalarni nazoratsiz qoldirish, alkogol ta‘sirida suvga tushish, chuqurlikni noto‘g‘ri baholash va qutqaruv vositalaridan foydalanmaslikdir. Ba‘zan esa tajribali suzuvchilar ham charchoq yoki mushak tortishishi tufayli xavf ostida qoladi.

### BIRINCHI YORDAM QANDAY KO‘RSATILADI?

O‘z vaqtida ko‘rsatiladigan yordam inson hayotini saqlab qolish mumkin. Cho‘kish holatida har bir soniya muhim hisoblanib, quyidagi qadamlar cho‘kayotgan odam hayotini saqlab qolishi muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Avvalo o‘zingizni himoya qiling! Agar yaxshi suzolmasangiz, suvga tushmang. Qutqaruv vositasidan foydalaning.
2. Jabrlanuvchini suvdan chiqaring, uni qattiq siltab, hushini tekshiring.
3. Nafas bor-yo‘qligini aniqlang. Agar nafas olsa, yon tomonga yotqizing.

### Agar nafas olmasa, darhol shoshilinch choralarni bajarishni boshlang!

- Cho‘kkan kishini chalqancha tekis sathga yotqiziladi va beliga (*ko‘krakdan pastroqqa*) kiyimlardan shakllantirilgan yostiqcha qo‘yiladi, bunda uning boshini orqaga engashtirib, ko‘krak qafasining pastki qismini yuqoriga ko‘tarib turish lozim va bosh yon tomonga buriladi;
- yordam ko‘rsatuvchi jabrlanuvchining bosh tomonida cho‘kkanlab o‘tiradi, ikki qo‘li va tirsagidan ushlab, qo‘llarini yuqoriga ko‘taradi hamda bir vaqtning o‘zida ularni orqaga yo‘naltirib, yon tomonga harakat qildiradi;
- qo‘l barmoqlari yerga tekkizilgan bo‘lishi lozim, bunday holatda ko‘krak qafasi kengayadi, nafas olinadi va jarohatlangan kishining qo‘llari tirsak bo‘g‘imida

bukilib, ko‘krak qafasi pastki qismiga qaytarib qo‘yilgan holda bir necha soniya qattiq qilib bosiladi.

- ko‘krak qafasining qisilishi tufayli nafas chiqadi va bir daqiqada 18-20 marta bajariladi;
- bo‘yin sohasida puls borligi tekshiriladi, agar yurak faoliyati aniqlanmasa, yurak-o‘pka reanimatsiyasi o‘tkaziladi;

● jabrlanganlarni tekis sathga yotqizing va to‘sh suyagi ustiga 30 marta ko‘krakni bosish va 2 marta og‘izdan og‘izga yoki og‘izdan burunga nafas beriladi, bu harakatni tez tibbiy yordam xodimlari yetib kelguncha yoki cho‘kkan odamni o‘zi erkin nafas olguncha davom ettirish lozim.

Cho‘kkan odam hushiga kelgan taqdirda ham, o‘sha zahotiyoq unga shifokor ko‘rigi zarur bo‘ladi. Chunki o‘pkaga suv kirgan bo‘lishi va asoratlar rivojlanishi mumkin.

### CHO‘KISHNING OLDINI QANDAY OLIISH MUMKIN?

Oddiy qoidalarni bilish, hayot uchun katta xavfning oldini oladi.

1. Faqat xavfsiz va qutqaruv jihozlari bilan jihozlangan joylarda cho‘miling.
2. Bolalaringizni bir soniyaga ham yolg‘iz qoldirmang.
3. Suzishni o‘rganing.
4. Qutqaruv jiletleri va boshqa qutqaruv vositalaridan foydalaning.
5. Alkogol iste‘mol qilganda suzishni bilsangiz ham suvga tushmang.

Xulosa qilib aytganda, cho‘kish tasodif emas – ko‘p hollarda e‘tiborsizlik natijasi. Bir qarashda, tinch ko‘ringan suv inson hayotini olib qo‘yishi mumkin. Lekin bilim, ehtiyotkorlik va tezkor birinchi yordam ko‘rsatish orqali bu fojining oldini olish mumkin.

**Esda tuting!** Siz bilib olgan birgina qoida – kimningdir hayotini saqlab qolishi mumkin.

**A. TANGIROV,**  
**Harbiy tibbiyot instituti o‘qituvchisi**



Jasorat timsoli

# QAHRAMON O'G'LONLAR MANGU BARHATOT

*("Jasorat" medali sohibi safdor  
Abdulxodi Abdulvohidov xotirasiga)*



Yillar o'tdi, Abdulxodi do'stlari aytganidek, harbiy xizmatchilar safida qad rostladi. Harbiy libos yarashgan, qadamlari chaqin yigitning ilkidagi burch mas'uliyatli. Ya'ni el tinchligi, yurt osoyishtaligini asrash. U safdoshlari orasida tez o'rin topdi. Chunki g'ayratli, shijoatli va bilimdon yigit vazifasini va komandirlari tomonidan qo'yilgan

topshiriqlarni tez va a'lo darajada bajarardi.

Unga nafaqat xizmatdoshlari, balki do'stlari ham havas qilar, ustozlari faxrlanardi.

2020-yilning fevral oyi. Tong sahar, qishning izz'irinli kunlaridan biri. Abdulxodi hushyorlik ila xizmat burchini bajarmoqda. U nogahon

bir ayolning Norin daryosiga tushib ketganini ko'rib qoldi. "Uni qutqarish kerak!" shoshildi yigit. O'ylab o'tirmay, o'zini daryoga otdi va toshqin suvga bas kelib, ayolni mahkam tutganicha qirg'oq tomon suzib ketdi. Mana, qirg'oqqa yaqinlashdi. Xayriyat, ayolni asrab qoldi, u. Biroq... biroq hayqirib oqayotgan daryo Abdulxodini bag'riga torta boshladi. Oyoq-qo'llari muzlagan yigit bor kuchini ishga soldi, daryo shitobiga bas kelishga intildi. Ammo...

\*\*\*

Umumta'lim maktabi hovlisiga o'rnatilgan qahramon o'g'lon byusti. "Jasorat" medali sohibi Abdulvohidov Abdulxodi Abdulaziz o'g'li" deb yozilgan byust atrofi gullarga burkangan. Necha yuzlab o'quvchilar qahramon yigit byusti hamda unga bag'ishlangan xotira burchagida ezgu orzularga beriladi:

– Men ham katta bo'lsam, albatta, harbiy xizmatchi bo'laman, qahramon bo'laman!

– Men ham! – uning gapini davom ettirdi ikkinchi bolakay. – Zo'r yigitlar Vatani va xalqining himoyachisi bo'ladi.

– Ustoz aytdilar, faqatgina o'g'il bolalar emas, qizlar ham harbiy sohada o'rin topishi mumkin, – unga e'tiroz bildirdi shaddod qizaloq.

– To'g'ri, mening opam harbiy xizmatchi. Menam opam kabi harbiy bo'laman!..

Bu o'g'il-qizlarning shunchaki orzu-umidlari emas – bu Vatan istiqboli. Bu – hurligimiz bardavomligi. Ular Abdulxodi kabi yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi yo'lida umrini nisor qilgan jasur shahid o'g'lonlarimiz hayotining davomchilaridir. Zero qahramonlar unutilmaydi, ular hamisha barhayot!

– O'g'lim, darsing allaqachon tugagan, nega kech qolding, xavotir oldik? – to'rtinchi sinfda tahsil olayotgan Abdulxodiga tanbeh berdi onasi Hadicha opa. – Bobo, buving ham yo'lingga ko'z tikib o'tiribdi.

– O'rtoqlarim bilan maktabdan qaytayotgandik. Qarasak, kichkina mushukcha daraxtga chiqib olib, tusholmayotgan ekan. Daraxtga chiqib, uni pastga olib tushdim. Shunga kech qoldim, onajon.

– Daraxtga chiqqaning kiyimlaringdan ko'rinib turibdi, ko'ylak, shimingning turishini qara, rosa suykilibsan o'ziyam. Hali kichkina bo'lsang, daraxtdan yiqilib tushsang, nima bo'ladi, bebosh bola?

– Urishmang, kelin, nabiram to'g'ri ish qilgan, – Abdulxodining tarafini oldi bobosi. – Tabiatga, hayvonlarga mehr-shafqatli bola ulg'ayganda ezgu ishlarga qodir inson bo'ladi!..

\*\*\*

Bugun Abdulaziz aka xonadonida quvonchli kun. Kenja o'g'li Abdulxodi Farg'ona harbiy texnika yo'nalishidagi akademik litseyga o'qishga kirdi. Oila a'zolarining kayfiyati chog'. Yigitchani tabriklagani kelgan sinfdoshlarining biri qo'yib, biri uni savolga tutish bilan ovora:

– Imtihonlarda qiynalmadingmi?  
– Yuqori ball bilan o'tibsan, deb eshitdik, to'g'rimi?

– Harbiy litseyda o'qish qiyin bo'lsa kerak, a?

– Hamma qiynalsa ham, Abdulxodi qiynalmaydi. Chunki maktabda yaxshi o'qigan. Keyin harbiy kasbga mehri baland.

– To'g'ri! Asosiysi, do'stimiz ortga chekinadigan yigit emas. U, albatta, orzusiga erishadi, harbiy bo'ladi!..



## Ontiga sodiq o'g'lon

*Er yigitni ardoqlaydi el,  
Qadamida unar jasorat.  
U misoli ortga qaytmas sher,  
Qahramonlik umriga payvand.*

*Abdulxodi shunday mard edi,  
Vatan uchun har sinovga shay.  
Ontga sodiq, olmos ahd edi,  
Sabot olgan yuragidan joy.*

*Harbiy maktab faxri bo'ldi u,  
Bolalikdan bilimdon, zukko.  
Ulug' ishga bog'ladi orzu,  
Ahd elga bo'lmoqlik fido.*

*Qad rostladi mardlar safida,  
Yurt tinchligin asramoq sharaf.  
Sinovlarda turib oldinda,  
Zahmatlarni etdi bartaraf.*

*Harbiy kasbning burchi muqaddas,  
Insonparvar tuyg'ularga yor.  
Botir yigit ortga chekinmas,  
Ichgan onti erur nomus-or.*

*Norin daryo oqar pishqirib,  
Cho'kar edi unda bir ayol.  
Abdulxodi bu holni ko'rib,  
Qutqarmoqqa shaylandi darhol.*

*Harbiyga xos jur'ati ila,  
Daryo shashitin yengib mardona,  
Inson umrin etdi himoya,  
Qutqarildi xokisor ona.*

*Ammo... ammo uni nogahon,  
Daryo suvi tortdi domiga.  
Bir insonga bo'ldi-yu qalqon,  
Yo'l topmadi o'zin joniga.*

*Fevral edi, sovuq edi suv,  
Pishqirardi daryo beomon.  
To'lqin bilan olishardi u,  
Lekin najot topmadi o'g'lon.*

*Botir yigit ko'z yumdi mangu,  
Jasoratning ulug' kaftida.  
Xotirasi misoli yog'du,  
Nur taratdi mardlik taxtida.*

*Unutilmas bunday jasorat,  
Unutilmas Abdulxodilar!  
Ular yodi dillarga payvand,  
Ular yashar mahsharga qadar.*

**Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

# VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

### Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6135

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 823 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan  
tahririyati bilan bog'lanish  
uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**



www.mudofaa.uz



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya